

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI  
TARIX VA IJTIMOIY FANLAR FAKULTETI  
MILLIY G'OYA, MA'NAVIYAT ASOSLARI VA HUQUQ TA'LIMI  
KAFEDRASI

“5111600 – Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi”  
yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasini olish uchun

**To’rayeva Mahbubanining**

*“Hozirgi davrda ma’naviy tahdidlarga murosasizlikning ma’naviy-ma’rifiy  
asoslari ” mavzusida yozgan*

# **BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

Ilmiy rahbar: dots. J.Do‘smuratov

“Himoyaga tavsiya etildi”

Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti dekani  
prof. B.Eshov

“\_\_\_\_\_” 2017 yil

Qarshi-2017 yil

## **MUNDARIJA:**

**KIRISH.....**.....3

**I Bob. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatni barqaror taraqqiyotiga xavf tug‘dirayotgan ma’naviy tahdidlarga murosasizlikning vositalari.**

- 1.1** Hozirgi sharoitda ma’naviy tahdidlar, ularni oldini olishning ma’naviy ma’rifiy yo‘llari.....5-16  
**1.2** O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat bilan kurashish” degan g‘oyasining mazmun va mohiyati.....17-29

**II Bob. Milliy taraqqiyotimiz barqaror rivojiga tahdid solayotgan o‘zga yot g‘oyalar va ularni bartaraf etish yo‘llari.**

- 2.1** Vatanimiz barqaror taraqqiyotiga tahdid solayotgan g‘ayriinsoniy kuchlar va ularga qarshi murosasizlik.....30-43  
**2.2** Hozirgi davrda ma’naviy tahdidlarga qarshi kishilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi.....44-5  
**Xulosa.....**.....60-6  
**Taklif va tavsiyalar.....**.....62  
**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....**.....63-66

## Kirish

**Mavzuning dolzabrligi.** Hozirgi davrda istiqlol yillarida amalga oshirilayotgan milliy mustaqilligimiz va tinch barqaror hayotimizga rahna solayotgan ma'naviy tahdidlar yaqqol ko'zga tashlanmoqda.

Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek "Ta'bir joiz bo'lsa, aytish mumkinki, bugungi zamonda mafkura poligonlari yadro poligonlaridan ham kuchga ega. Bu masalaning kishini doimo ogoh bo'lishga undovchi tomoni shundaki, agar harbiy, iqtisodiy, siyosiy tayziq bo'lsa, buni sezish, ko'rish, oldini olish mumkin, ammo mafkuraviy tayziqni, uning ta'siri va oqibatlarini tezda ilg'ab etish nihoyatda qiyin"<sup>1</sup>

Ayniqsa hozirgi murakkab sharoitda yosh mustaqil davlatlarga, jumladan, O'zbekistonga ham diniy ekstremizm, fundamentalizm, xalqaro terrorizm har xil ko'rinishdagi aqidaparastlik g'oyalar, axborot xurujlarning jamiyatimiz taraqqiyotiga xavfini, ma'naviy tahidlarni razil maqsadlarni ohib berish va uning oldini olishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani naqadar zarurligini asoslab berish bitiruv malakaviy ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Yurtboshimiz - mamlakatimizning Birinchi Prezidenti istiqlolning ilk yillaridayoq, "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifat degan aqidani bejiz ilgari surgani yo'q. Darhaqiqat, turli tahidlarning manbalari haqida mushohada yuritsak, g'ayriinsoniy va g'ayrimilliyl mafkura qurolining milliy ma'naviyatimizga mutlaqo zid ekanligini to'g'ri anlgash va unga qarshi kurash bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega.

Mamlakatiiz prezidenti Shavkat Mirziyoyev islam hamkorlik harakati tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimida so'zlagan nutqida : "Xavfsizlik muammosi o'ta keskin va fojiyali tus olayotgani barchamizni tashvishga solayotganini ta'kidlamoqchimiz. Islom hamkorlik tashkilotiga a'zo davlatlarning birdamligini ta'minlash, ular o'rtasidagi zidiyatlarga barham berish, urushlar, terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashishda sa'i-harakatlarini borlash tirish tobora

---

<sup>1</sup> I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat –yenglimas kuch" T; "Ma'navyat" 2008, 113 bet

avj olayotgan qarama-qarshiliklarni bartaraf etish, tinchlik va barqarorlikka taxtid solayotgan xavflarga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi

Ayniqsa, mavjud yoki yuzaga kelayotgan ziddiyat va to'qnashuvlarni tinch yo'l bilan, muzokalarlar, xalqaro huquqning umumetirof etilga prinsip va normalar asosida, siyosiy-deplomatik hamda xalqaro- huquqiy mexanizmlardan foydalangan holda hal etishga erishish eng muhim vazifa"<sup>1</sup>, – deya qayt etdi.

**BMIning natijalari va xulosalari quyidagi ilmiy va amaliy vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan:** Hozirgi davrda ma'naviy-ma'rifiy asoslari rivojlanib borayotgan, mustaqil taraqqiyot uchun qanchalik muhim ekanligini aniqlash va yanada ko'proq o'rganish, bu borada har bir ongli jamiyat a'zolari o'rtasida har qanday tahdidlarga qarshi ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, tashviqot samaradorligini oshirish, aholini g'oyaviy, mafkuraviy tafakkurini, siyosiy madaniyatini yuksaltirish, xalqimiz va yoshlar o'rtasida targ'ibot tashviqotni, ta'lim tarbiyani kuchaytirish ma'naviy tahdidlarni oldini olish uchun foydali bo'lishi mumkin.

### **BMIning maqsadi va vazifalari**

Bitiruv malakaviy ishimizning oldiga mustaqil taraqqiyot yillarida milliy mustaqilligimizga tahdid solayotgan ma'naviy-ma'rifiy tahdidlarning g'arazli maqsadlarini oldini olish ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaning o'ziga xos o'rnini ochib berishni ishning maqsadi etib belgilandi.

Bu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutiladi:

- Hozirgi davrda ma'naviy tahdidlarga murosasizlikning ma'naviy-ma'rifiy asoslарini naqadar dolzarbligini o'rganish;
- Insoniyat va millatlar taqdiriga katta xavf tug'dirayotgan ma'naviy tahdidlarni zararli mohiyatini aniq ko'rsatib berish;
- Mamlakatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "fikrga qarshi fikr, g'oyaga qarshi g'oya, jaholatga qarshi ma'rifikat degan aqidasini hozirgi davrda xalqimiz ayniqsa, yoshlar uni mohiyatini yanada chuqurroq o'rganishini kuchaytirish;

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev.Sh.M Posda gazedasi 2017.04.15 11- bet

- Ma'naviy tahdidlarga murosasiz kurashishda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyani kuchaytirishni tashkil etish;
- Mustaqil taraqqiyot yillarida o'sib kelayotgan yosh avlod ongi va tafakkurida ma'naviy tahdidlarga qarshi tura oladigan mafkuraviy immunitetni shakllantirishda ma'naviy-ma'rifiy profilaktikani zarurligini uzliksiz tushuntirib borishni tashkil etish.

**Ishning aprobatasiyasi.** Bitiruv malakaviy ish Qarshi Davlat Universiteti Tarix va ijtimoiy fanlar fakulteti Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi kafedrasini iqtidorli talabalarining ilmiy-nazariy seminarida ma'ruza qilingan.

**BMIning tuzilishi:** Bitiruv malakaviy ish kirish, ikki bob, to'rt paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

**I Bob. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyatni barqaror taraqqiyotiga xavf tug‘dirayotgan ma’naviy tahdidlarga murosasizlikning vositalari.**

**1.1 Hozirgi sharoitda ma’naviy tahdidlar, ularni oldini olishning ma’naviy-ma’rifiy yo‘llari**

Jamiyatning ma’naviy yangilanishi ko‘pgina omillar bilan o‘zviy bog‘liq holda amalga oshadi. Bunda mustaqil taraqqiyotimizga tahdid solayotgan ma’naviy tahdidlar va unga qarshi kurash vositalari bilan amalga oshirishni ham o‘ziga xos muhim o‘rni bor. Mazkur bobda jamiyat barqaror taraqqiyotiga xavf tug‘dirayotgan ma’naviy tahdidlarni oldini olish, unga qarshi kurashda yoshlarimiz keng jamoatchilik o‘rtasida ma’naviy-ma’rifiy tarbiyani kuchaytirish, ma’naviy tahdidlarni oldini olish uchun fuqarolarimiz ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish, bu borada prafilaktik ishlar targ‘ibot-tashviqot ishlarini samaradorligini oshirishda ommaviy axborot vositalaridan keng foydalanish, mahallalarda yashayotgan fuqarolar, yoshlar o‘rtasida shu mavzuga oid davra suhbat, o‘zaro muloqot, o‘zaro uchrashuvlar tashkil etib ma’naviy tahdidlarni oldini olish, unga qarshi kurashning usul va yo‘llaridan keng foydalanish maqsad qilib qo‘yilgan.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti Islom Karimov o‘zining “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” asarida ikki mafkuraviy tuzumning kurashi va bu kurashning xalqaro hayotning hamma sohalariga soya solishi natijasida kuchli qarama-qarshilik barham topganligi ko‘rsatib o‘tilgan. Lekin shundan keyin ham bizni qurshab turgan dunyo, ko‘plar kutganidek, osoyishtaroq bo‘lib qolgani yo‘q. Unda mojarolar kamaymadi. Bu mojarolar ilgari ikki tuzumning dunyo miqyosidagi qarama-qarshiligi doirasida ko‘pincha u yoki bu kuchlar qutbning manfaatlari yo‘lida “bostirib kelayotgan” edi. Bundan tashqari yangi mintaqaviy mojarolarning vujudga kelishi va ularga turli tashqi kuchlar o‘z jo‘g‘rofiy-strategik intilishlari doirasida jalb etilishidan iborat xavflar ham mavjud. Mintaqaviy mojarolar dunyoning rivojlangan mintaqalarida ham o‘ziga xos tus oldi.

Sobiq tuzum parchalanib ketgandan keyin bizning irodamiz yoki intilishimizga bog‘liq bo‘lмаган holda O‘zbekiston amalda front yaqinidagi davlatga aylanib qoldi. Uning tashqi chegaralarida – Afg‘oniston va Turkistonda so‘nggi yillarda bir qancha begunoh kishilarning qoni to‘klishiga olib keldi.

Mana 30 yildan ortiq yildan buyon hozirgacha avvalo Afg‘onistonda birodarkushlik urushi, Tojikistondagi urushlar vaqtı-vaqtı bilan Respublikamiz atrofida O‘zbekiston o‘z fuqarolarining farovon yashashni va ravnaq topishini ta’minlab beradigan darajada barqaror va bexatar rivojlanish mumkinligi haqida bir nima deyish mushkulligi ko‘rsatib o‘tilgan edi.

Mavjud mintaqaviy tanglik sharoitida O‘zbekistonning xavfsizligiga tahdid xayoliy narsa emas, balki yaqqol mavjud edi. Markaziy Osiyodagi davlatlarning birontasi, jumladan O‘zbekiston o‘zini xavfdan xoli deb hisoblamaydi.

Shunday vaziyatdan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi o‘zi bilan chegaradagi mamlakatlarida yuz berayotgan notinchlik, mojarolarni tinch yo‘l bilan hal qilishga va ularni oldini olishga qaratilgan har qanday harakatlarni, amaliy qadamlarni qo‘llab-quvvatlab keldi va bundan buyon ham qo‘llab-quvvatlayoveradi.

Darhaqiqat XXI asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson Koinot sirlarini yanada kengroq o‘zlashtirib borayotgan asr, axborot va g‘oyat ulkan texnikaviy imkoniyatlar asri bo‘lib borayotganligi o‘z-o‘zidan hammaga ayon. Shu bilan birga bu asrda diniy qadriyatlarning uyg‘onish davri, vazmin behuda urinishlardan xoli diniy ma’naviyatga o‘ziga xos tarzda qaytish davri bo‘lib qoldi.

Jahoning eng yirik dinlaridan bo‘lgan Islom dini ham shu kabi yalpi intilishlardan holi diniy ma’naviyatga o‘ziga xos tarzda qaytish davri bo‘lib qoldi.

Jahondagi eng yirik dinlardan bo‘lgan islom ham shu kabi yalpi intilishlardan chetga qolgani yo‘q. Aksincha, musulmon dunyosida va hatto undan tashqarida ham so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida ro‘y bergen voqealar jahon hamjamiyatida “Islom ovozi” deb atalgan xodisa haqida gapirish imkonini berdi.

Ko‘plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergen “Islom uyg‘onishi”, “Qayta islolashish”, “Islom fonemeni” va boshqa turli – tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar.

Bu tushunchalar haqida munozaraga kirishmagan holda, e'tiborini jahon hamjamiyati hayotida islom qadriyatlarini tiklash bayrog'i ostida ro'y berayotgan hodislar g'oyat xilma-xil, ko'p qirrali, ba'zan ziddiyatli va hatto qarama-qarshi qutbli ekanligiga qaratilgan.

Shu bilan birga, aniq-ravshanki, jahon jamoatchiligi bu jarayonlarga juda katta qiziqish bilan qarab qolmayapti. Uning diniy ekstremizm va fundamentalizm kabi keskin hodisalar munosabati bilan bezovtalanayotgani, ba'zan esa hatto xavfsirayotgani ham ko'zga tashlanmoqda. Afsuski, hozirgi kunda butun dunyoga xavf solayotgani kabi O'zbekistonni mustaqilligini mustahkamlash davrida mamlakatimizni tinch barqaror hayotiga ham tahdid solmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizm bizning mintaqamizga ham tahdid solayotganligini tahlil qilishdan oldin e'tiborini odamlarning diniy e'tiqodi bilan bog'liq har qanday muammo g'oyat nozik ekanligiga, ularning diniy ma'naviy qadriyatlari bilan shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko'zlayotgan, dinga aloqasi bo'limgan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o'rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratish lozim edi.

Sobiq tuzum mafkurasini ma'naviy qashshoqligi, fanatizm va millatlarga qarshi qaratilganligi diniy fundamentalizm va an'anaviylik uchun isharoit yaratdi. Faqat Islom dinidagina emas, balki Yaxudiylik, Xristian konfessiyalari – Rus provaslav, Rim – katolik, Arman – grigorian, Lyuteran cherkovlarida, baptistik va boshqa jamoalarda ham shu hol ro'y berdi.

Biz bularning barchasini 130dan ortiq xalq, millat, 17 diniy konfessiya vakillari yashayotgan O'zbekiston misolida yaqqol ko'rishimiz mumkin. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan kunlarda jamiyatimizda g'oyaviy, mafkuraviy bo'shliq yuzaga keldi. Sababi, kommunistik mafkuraga barham berilganidan so'ng hali milliy mafkuramiz endigina shakllanish jarayonida jamiyatda, ijtimoiy hayotda vakum bo'shliq paydo bo'ldi. Bunday vaziyatdan foydalanmoqchi bo'lgan diniy ekstremistik guruhlар mamlakatimizda nosog'lom vaziyatni yuzaga keltirish uchun o'zlarining aqidaparastlik g'oyalarini xalq ommasi o'rtasida tarqatib mamlakatimiz

tinch taraqqiyotiga xavf sola boshladi. Bundan tashqari O‘zbekiston endi mustaqillika erishganligi sababli mamlakatimizda xalqni diniy qadriyatlarini to‘g‘ri talqin etib, xalqni islomiy ma’naviyati va islomiy madaniyatini to‘la shakllantiradigan yetarlicha diniy ta’lim olgan imomlar yetishmas edi. O‘sha davrda to‘liq diniy ilmga ega bo‘limgan chala mullalar xalqni chalg‘itishdan boshqa narsaga yaramasdi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganda malakatimiz tinch va barqaror taraqqiyotiga tahdid solayotgan diniy ekstremistik va terroristik kuchlar yaqqol ko‘zga tashlana boshladi.

Diniy ekstremistik qarashlar, ta’limotlar barcha diniy ta’limotlar doirasida uchrashi mukin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, hukmron feodal-katolik aqidalarini rad etuvchi kuchlar yoki kishilar – pap hokimiyati dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyati ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Shunday ekan ekstremizmni faqat muayyan din bilan bog‘lash mutlaqo asosizdir. Xususan, Islom dini, turmush tarzi va qadriyatlar majmui sifatida hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go‘yoki, din va musulmon jamoasi ravnaqi yo‘lida amalga oshirilayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas<sup>1</sup>.

Hozirgi davrda eng avvalo axborot chegaralarining barham topishida o‘zligini namoyon qilayotgan globallashuv sharoitida va bir paytlar xalqaro munosabatlar mazmunini belgilagan ikki qarama-qarshi kuch – sotsializm va kapitalizm o‘rtasidagi o‘zaro kurashning barham topishi natijasida ekstremizm va undan o‘sib chiqqan terrorizm mamlakatlar, mintaqalar va umuman dunyo xavfsizligiga asosiy tahdid sifatida birinchi o‘ringa chiqdi. Qo‘poruvchilik faoliyatining turli ko‘rinishlarini o‘z ichiga olgan infrastrukturani shakllantirgan va rivojlantirgan mazkur ikki dunyoqarash o‘rtasidagi kurash hozirda turli xil kuchlarni birlashtirgan ko‘p qutbli dunyoning mazkur infrastrukturaga qarshi kurashidek shakl-shamoyil kasb etmoqda.

---

<sup>1</sup> Rajabova.M. Diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash muammolari. -T.: "O‘zbekiston", 2003, 7- 8-betlar.

Bugun ekstremizm anarxizm va fashizmning arxaik shakllari bilan qorishmasi hisoblangan va ommaning keng qatlamlari bilan bog'lovchi xalqa sifatida islam shiorlaridan ustalik bilan foydalanadigan, aslida esa xalq bilan hech qanday aloqasi yo'qligini mohirona yashira oladigan xolat kasb etdi. O'z vaqtida, XX asrning 70-yillarida, ekstremistlar xalq bilan birgalikni ko'rsatish va uning nomidan harakat qilish uchun kommunizm shiorlari ostida faoliyat yuritishi va shu yo'l bilan mablag' toplashi qulayroq edi. O'sha yillarda Lotin Amerikasida ekstremistik ruhdagi communistparast tuzilmalarning jangarilari jamiyatda parokandalikni yuzaga keltirish va tartibsizlik to'lqinida communistlarning hokimiyatni qo'lga olishiga sharoit yaratishga qaratilgan ko'plab terrorchilik xurujlarini sodir etardilar. Biroq aksariyat hollarda, ular hokimiyatni qo'lga olish niyatlariga erisha olmadilar va jamiyat a'zolari diqqatini jalb qilish maqsadini ko'zlagan shov-shuvli terrorchilik xurujlarini amalga oshirish bilan qanoatlanishga majbur bo'ldilar.

Ekstremistik tuzilmalarning asosiy maqsadi aslida jamiyatni qo'rquv va vahimada tutib turish va shu yo'l bilan omma ongida noilojlik, ertangi kunga ishonchsizlik tuyg'ularini shakllantirishga qaratilgan edi. Bu esa o'z navbatida, ijtimoiy hayotning turli jabhalarida barqarorlikka erishishni va jamiyat taraqqiyotini jiddiy qiyinlashtirar edi.

Bugungi kunda communistik shiorlar unchalik ham mashxur emas, ekstremistik tuzilmalarni "qizil rangi" uchun yirik mablag'lar bilan qo'llab-quvvatlagan SSSR ham yo'q. O'z navbatida, AQSH va uning sheriklariga ham, shunga o'xshash tuzilmalarni qo'llab-quvvatlash uchun yirik mablag'larni sovurishiga hech qanday zarurat kolmadi. Biroq yangi sharoitda har xil turdag'i buzg'unchilik, beqarorlikni keltirib chiqarishga qaratilgan vositalar bugun ham ana shu maqsadlarga aksariyat hollarda islam shiorlari ostida yo'naltirilayapti, xolos.

Shu bilan birgalikda, ba'zi xolatlarda ma'lum bir ekstremistik tashkilotlar va alohida davlatlarning strategik hamda taktik maqsadlari o'zaro bir-biriga mos kelganida, o'sha davlatlar ekstremistik tashkilotlarga "homiy"lik qilishi va beqarorlikdan o'z maqsadlari yo'lida foydalanishga urinishlari mumkin.

Ekstremistik qarashlarni barcha diniy ta’limotlar doirasida uchratish mumkin. Masalan, mutaxassislar katolik cherkovining erkin fikr yurituvchi, xukmron feodal-katolik cherkovi aqidalarini rad etuvchi kishilar - papa hokimiyati dushmanlarini ta’qib qilish uchun XIII asrda tuzilgan va minglab odamlarning qurbon bo‘lishiga olib kelgan inkvizitsiya faoliyatini ham ekstremizmning o‘ziga xos ko‘rinishi sifatida baholaydilar. Shunday ekan, ekstremizmni faqat muayyan din bilan bog‘lash mutlaqo asossizdir. Xususan, islom dini, turmush tarzi va qadriyatlar majmui sifatida hech qachon ekstremistik tuzilmalarning go‘yoki, din va musulmon jamoasi ravnaqi yo‘lida amalga oshirayotgan terrorchilik xurujlarining asosiy sababi sifatida qaralishi mumkin emas.

Islom shiorlaridan tanlab foydalanadigan, dinning asl mohiyatini buzib talqin qiladigan ekstremistik tuzilmalar huddi yuqoridagi kabi keng xalq ommasi bilan uzviy birlik mavjudligini ko‘rsatish, aslida esa jamiyatda tartibsizlik va parokandalikni yuzaga keltirish uchun mablag‘ yig‘ish, asosiy tahdid manbai sifatida odamlar ongu shuurini egallash, jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish orqali hokimiyatga erishishdek extiyojlarini qondirish maqsadini ko‘zlaydi.

Shunisi diqqatga sazovorki, ekstremistik ruhdagi tuzilmalarning hech biri biror bir shaklda o‘zlari jar solayotgan, o‘zlari “intilayotgan” jamiyat qurilishi modelini taklif etolmaydi.

Kommunizm, xalifalik – “umumi farovonlik va sog‘lom mutanosiblik jamiyati”<sup>1</sup> oliv maqsad deb ko‘rsatilgan holda, qo‘rquv va buzg‘unchilik ularga erishish yo‘li sifatida taklif etiladi. Bu esa bir vaqtlar mashxur bo‘lgan, Rossiya va Yevropada uzoq yillar davomida buzg‘unchilik yo‘lida terrorchilik usullarini qo‘llab kelgan tuzilmalar faoliyatini oziqlantirib kelgan anarxizm g‘oyalari bilan hamohanglik kasb etadi.

Hozirgi davrda ko‘plab ekstremistik uyushmalar va aqidaparastlar turli dinlar, shu jumladan, xrristianlik, islom, yaxudiylik dirlari ta’limotidan foydalanmoqdalar. Shu bilan birga, diniy ritorika ularga ko‘zda tutilayotgan jamiyatning aniq shaklu shamoyilini takdim etmagan holda (bu ular uchun huddi anarxistlar kabi unchalik

<sup>1</sup> Tulepov A.M. ISHID fitnasi. T.: “Movarounnahr” 2015. 49- bet

ahamiyatga ega emas) hayoliy jamiyat haqidagi tasavvurlardan foydalanish imkonini beradi. Bunda eng muhimi tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishdir. Unga erishish esa, o‘ziga xos eng umumiy maqsadni tashkil etadi, deyish mumkin.

Noqonuniy quroq-yarog‘ savdosi va narkobiznes hisobidan katta mablag‘lar to‘planayotgan, musulmon dunyosida shakllangan o‘ziga xoslik tufayli yuzaga kelgan vaziyatda islomni shior qilib olgan ekstremizm va terrorizm xavfsizlikka asosiy tahdid sifatida birinchi o‘ringa chiqdi.

Shuni ham tan olish kerakki, ommaviy axborot vositalarining rivoji va axborot omili ta’sirining kuchayishi bugungi kunda ekstremizm va ter-rorizmning hech narsa bilan o‘lchab bo‘lmaydigan darajada ko‘zga tashlanadigan ijtimoiy hodisaga aylanishiga olib keldi. Xususan, narkobiznesdan keladigan foydaga va soxta inqilobiylikni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan sotsialistik tuzum yordamiga tayanib, XX asrning 70-yillarida lotin-amerikalik ekstremistlar ko‘plab terrorchilik harakatlarini sodir etgan bo‘lsalar ham, ommaviy axborot vositalarining o‘sha paytdagi rivojlanganlik darjasini ularga global miqyosga chiqish imkonini bermagan edi. Bunday vaziyatda Lotin Amerikasi ekstremizmi mintaqaviy darajadan tashqariga chiqqa olmagan.

Ekstremizm va terrorizm ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmas ekan, ko‘zlangan “samarani” bermaydi. Shu ma’noda ular o‘zaro bog‘liqdir. Terrorchilik xuruji ommaviy axborot vositalarida qanchalik keng yoritilsa, ushbu harakatni sodir etishdan kutiladigan natija shunchalik bevosita va yuqori bo‘ladi. Bu esa u yoki bu harakatni o‘tkazishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad hisoblanadi. Axborot maydoni rivojlanib, tobora to‘yinib borayotgan, ammo uni yetkazishda ham mazmunan, ham shaklan, o‘zibo‘larchilik ustuvorlik qilayotgan hozirgi davrda OAV ekstremizm va terrorizm qo‘lidagi kuchli quroqlga aylanib qolmokda. To‘g‘ri, OAV o‘z xolicha terrorchilik xurujining “samaradorligini” anglagan xolda tashkil etadigan tizim hisoblanmaydi. Ammo aksariyat hollarda bunga ko‘maklashmoqda, deyish mumkin.

Shuni ta'kidlash lozimki, tarixiy, diniy va milliy xususiyatlar aholining keng qatlamlari bilan muloqot tili va undagi o'ziga xos urg'ularni tanlashda muhim o'rinni egallaydi. Tabiiyki, hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida kommunistik yoki nasroniylik emas, balki aynan islom shiorlaridan foydalaniladi. Markaziy Osiyo mintaqasi o'z tarixida islom rivojiga hech qanday aqidaparastlik va jangarilik unsurlarini olib kirmagan. Aksincha, mintaqada islom dini yoyilgan vaqtadan to bugungi kungacha insonparvarlik va bag'rikenglik an'anasi ustuvor bo'lib kelmokda. O'rta asrlarda Arab Sharqida ayrim sufiy birlashmalari jangovarlikni namoyon qilgan hamda inkvizitsiya va jazolash tuzilmalari vazifalarini bajargan vaqtda ham Markaziy Osiyo sufyligida insonga muhabbat va bag'rikenglik targ'ib qilinar edi.

Ayni paytda, barcha davrlarda u yoki bu etnik guruhgaga mansublik borlovchi (birlashtiruvchi) omil sifatida muayyan vazifani bajargani uchun ham Markaziy Osiyoda qaror topgan islom dini milliylikdan xoli emasligini namoyon etganini ta'kidlash zarur. Shuning uchun ham, XX asrning boshlaridagi arab modernistlaridan farqli ravishda jadidlar undan yiroqlashib, o'z kuchlarini birinchi navbatda ham diniy, ham milliy ongni o'stirishga sarflagan edilar.

O'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi diniy bag'rikenglik, insonparvarlik mayllari, fan va san'atning rivojlanishi Arab Sharqida qarshilikni keltirib chiqardi. Natijada XIII – XIV asrlarda bugungi kunda tuzilmalarini shakllantirayotgan ekstremistlar g'oyaviy jihatdan tayanayotgan aqidaparast salafiylik oqimi yuzaga keldi.

Ibn Taymiyya boshchiligidagi salafiylar Markaziy Osiyo mutafakkir, olim va ulamolarini "islom mohiyatini soxtalashtirish"da ayblab, xalifalikni ideallashtirishga asoslangan qarashlar tizimini ishlab chiqdilar va jihodni unga erishishning asosiy vositasi sifatida e'lon qilib, o'z g'oyalariga jangovarlik tusini berdilar. Shunday qilib, salafiylik hokimiyat uchun kurashning maxsuli edi. Shu tariqa, XVIII asrning birinchi yarmida Muhammad Abdul Vahhob salafiylik asosida Arabiston yarim orolida hokimiyat uchun kurash olib borishga moslashtirilgan vahhobiylirkun ta'limotini yaratdi.

Yangi davr Arab Sharqidaagi mutaassib oqimlar dastlab salafiylik va vahhobiylar asoslangan bo'lsalarda, keyinroq ulardan ham ilgarilab ketdilar. Bu tuzilmalarning g'oyaviy dasturi "ixvoniylar" va "jihod"ga asoslangan bo'lib, ko'p sonli jangarilik uyushmalariga g'oyaviy ozuqa berib kelmokda.

1928 yilda Misrning Ismoiliya shahridagi maktabda mudarrislik qilgan, sufiylikning xasafiya maktabiga mansub bo'lgan Xasan Abduraxmon al-Banno muslimmon olamini tozalash va muslimmon aholi yashaydigan mamlakatlar hududida islom davlatini qurishdek vazifalarni o'z oldiga qo'ygan "Musulmon birodarlar" uyushmasini tuzdi. Barcha muslimmon va nomusulmon xukumatlarga qarshi jihod – yalpi urush e'lon qilish ushbu maqsadga erishish yo'li sifatida belgilangan edi. Al-Banno o'zining "Fannul-mavt" ("O'lim san'ati") kitobida mavjud xukumatlarni yo'q qilishga erishish yo'llarini asoslab berdi va ilk marta o'zini o'zi qurban qilish shaklida jangarilik amaliyotini tayyorlash va amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatni oqlab fatvo berdi.

Harakatning yuzaga kelish shart-sharoitlari, tarixiy vaziyat va o'sha davrda Misrdagi siyosiy kuchlarning nisbatini o'rghanish ko'plab tadqiqotchilarga unga mohiyatan terrorizmga asoslangan, trotskiycha uzuksiz inqilob g'oyasiga amal qilgan Kominternning barqaror ta'siri bo'lganini qayd etish imkonini bergen edi. Musulmon Sharqida kommunistparast guruhlarni shakllantirish uchun sharoitning yetarli emasligi Komintern faollarining terror uslublarini targ'ib qilish, uni eksport qilish va islomiy tashkilotlarni o'zlarining siyosiy kurash usullari bilan qurollantirish orqali jamiyatni beqarorlashtirishdek vazifani hal qilishga intilishlariga yo'l ochdi. Ular bu yo'lda muayyan muvaffaqiyatga erishdilar ham.

Bundan tashqari, fashistlar Germaniyasi emissarlari faolligi bilan bog'liq qiziqarli ma'lumotlar ham mavjud. 1940 yilda Xasan al-Banno "Musulmon birodarlar"ning asosiy vazifasi terrorchilik xujumlari uyushtirish bo'lgan "maxfiy apparat"ni tuzadi. Shunisi e'tiborga molikki, u tomonidan uyushtirilgan ayrim jangovar operatsiyalar fashistlar homiylik qilgan "Masr al-Fatot" tashkiloti yordamida amalga oshirilgan. Shu yillarda "Musulmon birodarlar"ning Suriyadagi bo'linmasi ham jangarilarning shunga o'xshash tizimini yaratdi. Ularning Suriyada o'tkazgan

jangovar amaliyotlari esa fashistlar homiylik qilgan Antuan Saade boshchiligidagi Suriya Millatchilik partiyasi jangarilari tomonidan qo'llab-quvvatlangan.

150 kishi atrofida bo'lgan "maxfiy apparat"dagi jangarilar beshliklarga bo'lingan holda maxsus tayyorgarlikdan o'tganlar. Tayyorgarlik jarayonida jangarilarning irodasini Oliy nozirga butunlay buysundirish, shu orqali ularni al-Bannoning "Fannul-mavt" kitobida tushuntirilgan usullarda o'zini qurban qilishga. tayyorlaganlar. Al-Bannoning yuz yillar davomida yashirin faoliyat ko'rsatish va ma'naviy rahbar irodasiga so'zsiz bo'ysunish tizimlarini ishlab chiqqan sufiylikning xasafiya mактабига mansub ekanini yodga oladigan bo'lsaq bunday texnologiya qayerdan o'zlashtirilgani oydinlashadi.

Shunday qilib, islom bayrog'i ostida faoliyat ko'rsatayotgan zamonaviy ekstremizmning paydo bo'lishii va rivojlanishini tarixning muayyan davrida ustuvor bo'lgan ko'plab omillar, turli jarayonlarning o'zaro ta'sirlashuvining natijasi deb tushunish mumkin.

Turli salbiy jarayonlarning omuxtalashuvi islom ritorikasi bilan qo'shilgan holda keyinchalik ikki sistema o'rtasidagi kurashda umumiy beqarorlashtiruvchi vosita sifatida qo'l keldi. Ularning har biri o'z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib uni moliyalashtirishga, kerakli yo'nalishga solishga harakat qilib keldi. "Musulmon birodarlar"<sup>1</sup> o'z tashkilotlarini rivojlantirish uchun Britaniya hukumatidan mablag'lar olib turgani tarixdan ma'lum. Bu vaqtida britaniyaliklar ulardan arab davlatlari siyosiy sahnida faoliyat yuritayotgan boshqa kuchlarga qarama-qarshi kuch sifatida foydalanishga intilar edi. Biroq shunga o'xshash holatlarda bo'lganidek "birodarlar" bu mablag'lardan terrorchilik xurujlarini amalga oshirishda, jumladan, britaniyalik fuqarolarning o'zlariga ham xujumlar uyushtirishda foydalanganlar.

Keyinchalik "birodarlik" asosida ko'plab ekstremistik va terrorchilik uyushmalari vujudga keldi.

Dastlabki aqidaparastlar Hasan al-Banno, Musta-fo as-Siboiy o'rniga kelgan Sayd Qutb, Muhammad G'azzoliy, Umar at-Tilmisani, Salohiddin Ashmaviy, Ali

---

<sup>1</sup> Dobayev I. Islom radikalizmi: mohiyati, mafkura, siyosiy amaliyot.-T.:2003.-11bet

Bayonuniy kabi shaxslar ushbu tuzilmalarning faoliyati yanada aggressivroq bo‘lishiga o‘z xissalarini qo‘shdilar.

1953 yilda “Musulmon birodarlar” uyushmasining bir guruh a’zolari Iordaniyada “Xizb at-taxrir al-islomiy” nomli yangi partiyani tuzadi. Bu partiyani Taqiyuddin Nabaxrniy al-Falastiniy boshqaradi. Partiya o‘z oldiga barcha musulmon davlatlari hududida yagona islom davlati – “xalifalik” tuzish maqsadini qo‘yadi. Mohiyatan “Musulmon birodarlar”dan unchalik farq qilmagan ushbu partiya o‘z harakatlarini u bilan muvofikdashtirgan holda olib bordi va terrorchi tuzilmalarga muntazam ravishda jangarilarni tayyorlab berish vazifasini bajara boshladi. Huddi “birodarlar” bilan bo‘lganidek, maxsus xizmatlar bozorida jangarilarga talab bo‘lmanan hollarda partiya o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘poruvchilikni amalga oshira oladigan uyushmalar tuzadi. Bu ohir-oqibatda “birodarlar” bor joyda hizbutchilar, hizbutchilar bor joyda “birodarlar”ning faoliyat ko‘rsatmasligida namoyon bo‘lgan ta’sir doirasini bo‘lib olishdek amaliyotning shakllanishiga olib keldi.

Dunyo bo‘yicha faoliyat olib borayotgan bunday qudratli tashkilotlardan muntazam ravishda kichik terrorchi uyushmalar paydo bo‘lib turadi. XX asrning 70-yillari boshidan musulmon olamida “Junullox”, “Jihod”, “al-Jihod al-islomiy”, “Shabab-Muhammad”, “Al-takfir val-xijra” va boshqa tashkilotlar faoliyat olib bordi. Ularning ko‘pchiligi hozir ham bor bo‘lsada, bugun yuqorida qayd etilgan tashkilotlar a’zolarining eng faol qismini o‘zida to‘plagan va xalqaro tarmoq sifatida faoliyat yuritayotgan “al-Qoida”ning bir qismi sifatida ish olib bormokda. Lekin yangi sharoitda “al-Qoida” muhim bir xususiyatga ega, ya’ni u ekstremistik tashkilotlarni moliyalashtirish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan jangarilar va ekstremistlarning xizmatlari bozori sifatida tarkib topdi.

Ushbu tashkilot “al-Qoida” yetakchilarining kam-ko‘stsiz yashashi, qo‘poruvchilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi ulkan mashinaning doimiy faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash uchun narkobiznes, kidnepping (tovon olish maqsadida kishilarni garovga olish), boy musulmon oilalaridan qo‘rqitish orqali pul undirish va boshqa ko‘plab manbalar hisobiga moliyaviy mablag‘lar yig‘adi.

Shu o‘rinda jangarilar xizmat bozorida kasbiy mahoratga ega mutaxassislarning paydo bo‘lishi XX asrning 90-yillarida terrorizmning beqiyos darajada avj olishiga zamin yaratganini ta’kidlash zarur. Gap shundaki, sovuq urush tugashi bilan malakali mutaxassislarning bir qismi o‘z davlatlarida ishsiz va e’tiborsiz qoldilar. Bu ularni katta mablag‘larga ega ekspert va yollanma jangchilar bozoriga yetaklab keldi. Ularning say-harakatlari bilan giyohvand moddalar savdosi yangi darajaga ko‘tarildiki, bu o‘z navbatida terrorchilik xurujlarining faollashuviga olib keldi.

## **1.2. O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Islom Karimovning “fikrga qarshi fikr, g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma’rifat Bilan kurashish degan g‘oyasining mazmun va mohiyati.**

Bugun dunyo taraqqiyoti shu darajaga etdiki, endi mafkuraviy kurash, ma’naviy salohiyat etakchi o‘ringa chiqdi. Endi qurol-yaroqlar emas, balki “fikrga qarshi faqat fikr, g‘oyaga qarshi faqat g‘oya” bilan kurashib olg‘a borish mumkin. Kimning mafkurasi, milliy g‘oyasi kuchli bo‘lsa, o‘sha engib chiqadi.

Mafkuraviy kurash bir jamiyat, mamlakat ichida ham, xalqaro va davlatlararo miqyosda ham davom etmoqda.

Hozirgi vaqtida mafkuraviy vositalar orqali o‘z ta’sir doirasini kengaytirishga intilayotgan siyosiy kuchlar va harakatlar tobora keskinlashib bormoqda. Muayyan millat, jamiyat, davlatning tinchligi va barqarorligiga qarshi qaratilgan, siyosiy va konstitutsion tizimni zaiflashtirish va buzishga yo‘naltirilgan, fuqaro va jamiyat xavfsizligiga tahdid soluvchi mafkuraviy tajovuzlar keskinlashmoqda. Bunday tajovuzga qo‘l urayotgan yovuz kuchlar o‘z jirkanch maqsadlariga erishish uchun har qanday usullardan, odamlarning diniy, milliy hissiyotlari, hayotda mavjud bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy qiyinchiliklaridan, shuningdek, zamonaviy texnika, telekommunikatsiya vositalaridan ustalik bilan foydalanishga harakat qiladilar. Bugungi kunda ularning aholining ma’lum bir qatlamlari, ayniqla, yoshlarning qalbi va ongini o‘zlariga ma’qul bo‘lgan g‘oya bilan egallashlari ya’ni buzg‘unchi g‘oyalar, diniy ekstremizm axloqsizlik g‘oyalarini singdirish kabi g‘arazli maqsadlari xalqqa ayon bo‘lib bormoqda.

XXI asr bo‘sag‘asida tarixiy tajriba shundan dalolat beradiki, u yoki bu davalatning, millatning xavfsizligi, barqarorligi va taraqqiyoti, uning kelajagi mazkur millatga xavf solayotgan tahdidni anglab etish salohiyati va qobiliyati darajasiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Globallashuv jarayonining chuqurlashib borishi natijasida inson uchun xavfli bo‘lgan turli xil noan’anaviy tahdidlar yuzaga kelmoqda. Bularidan eng xavflilari insonlarning ruhiyatiga ta’sir o‘tkazish orqali millatlarning qadriyatlari va turmush

tarzini izdan chiqarishga qaratilgan axloq-odob, oila va jamiyat hayotida jiddiy ta'sir ko'rsatadigan ma'naviy tahdidlar hisoblanadi.

O'zbek nomini, o'zbek ilm-fani va madaniyatini, bir so'z bilan aytganda, xalqimizning yuksak salohiyatini, uning qanday buyuk ishlarga qodir ekanini dunyoga namoyish qilishda yurtimiz zaminidan yetishib chiqqan yuzlab ulug' zotlar fidoiylik namunalarini ko'rsatib kelgan. Bunday insonlar diyorimizda hozir ham ko'plab topiladi va bundan keyin ham ularning saflari kengayib boraveradi. Hamma gap ana shunday insonlarga xayrixohlik bilan munosabatda bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlashda. Agar biz mamlakatimizning qaysi shahar yoki qishlog'ida bo'lmasin, yilt etgan iste'dod uchqunini ko'rganda, hammamiz uni o'z vaqtida payqab, ardoqlab, parvona bo'lib, unga yo'l ochib bersak, barcha sa'y-harakat va intilishlarimizni ana shunday oljanob maqsadga qaratsak, muxtasar aytganda, hasad qilib emas, havas qilib yashashni hayotimiz qoidasiga aylantirsak, hech shubhasiz, biz milliy taraqqiyot bobida yanada yuksak marralarni egallashga erisha olamiz. Bu haqda gapirar ekanmiz, ma'naviy hayotimizga jiddiy xavf soladigan yana bir illat haqida to'xtalib o'tmoqchiman. Shaxsan o'zim bu illatdan jirkanaman. Shu illatga chalingan odamni ko'rarga ko'zim yo'q. Bu – sotqinlikdir. Men har qanday yovuzlikni sotqinlikdan ko'raman. Ezgulik va haqiqatga sadoqati bo'lмаган, уларга ишонмаган одам qo'rinchlidir. Tabiatida sotqinlik xususiyati bo'lgan odam rahbarlik kursisiga o'tirib qolsa bormi, u yerda osoyishtalik yo'qoldi, deyavering. Ikkita odamning, ikkita mamlakatning o'rtasidagi urushni ham aynan shunday odamlar boshlab beradi. Shu bois bunday odamlardan ogoh bo'lishimiz, ularga yonimizda o'rin bo'lmasligi lozim. Agar tevarak-atrofimizdagi birorta kishida shunday alomatlar sezilayotgan bo'lsa, ularni darhol tarbiyamizga olib, to'g'ri yo'lga boshlashimiz kerak. Shu munosabat bilan tarixda ko'p marta o'z tasdig'ini topgan, men ham o'z tajribamda sinagan hayotiy bir haqiqatni yana bir bor takrorlashni zarur deb hisoblayman: agar biz ahil bo'lsak, el-yurt manfaati yo'lida bir tanu bir jon bo'lib yashasak, o'zimizdan sotqin chiqmasa, o'zbek xalqini hech kim hech qachon yenga olmaydi.

Bu hayotda odam ba'zan o'zini yo'qotib qo'yadigan g'oyat murakkab muammolarga duch keladi. Keskin vaziyatdan chiqishning iloji yo'qdek tuyuladigan holatlar bor. Shunday paytda, ishda va hayotda, jamiyatda og'ir savdolarga duch kelganda kim o'zining yo'lini yo'qotmasligi mumkin? O'ylaymanki, birinchi navbatda o'z kuchiga ishongan, ruhiy dunyosi, ma'naviy olami baquvvat bo'lgan odamgina bunday vaziyatdan yorug' yuz bilan chiqo oladi. Ma'naviy boylik shunday paytda odamga katta kuch va madad beradi. Shu ma'noda, insonning ma'naviyati yuksalishi bilan uning irodasi ham kuchayib boradi, desak, yanglishmagan bo'lamic. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqlaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin. Bunday kishilar boshingizga biror-bir tashvish yoki muammo tushgudek bo'lsa, loqayd qarab turolmaydi. Hech ikkilanmasdan, yoningizda turib, qo'lidan kelgancha yordam berishga, qiyinchiliklarni siz bilan birgalikda yengishga harakat qiladi<sup>1</sup>. Lekin birovning hayotiga, yon-atrofda sodir bo'layotgan voqe-a-hodisalarga betaraf va beparvo qarab, shunchaki kuzatuvchi bo'lib yashaydigan odamdan qo'rqlaydi kerak. Ulardan hech qachon yaxshilik chiqmaydi. Chunki ularda na iymon, na iroda bo'ladi. Ular hatto o'z xalqi va Vatani taqdiriga ham bamisolli begona odamdek qaraydi.

Azaldan ma'lumki, beparvo odam dushmanidan ham xavfliroqdir. Chunki dushmanning kimligi, asl qiyofasi siz uchun oldindan ma'lum bo'ladi. Biroq loqayd va beparvo odamning qiyofasini birdaniga bilib bo'lmaydi. Shuning uchun u ichingizda yurib, sizga qarshi tish qayraydigan dushmanlar uchun imkoniyat yaratib beradi. Mashhur faylasuflardan biri ana shu hayotiy haqiqatni chuqur tahlil etib, quyidagi haqqoniylar fikrlarni bayon qilgan: «Dushmanlardan qo'rqlaydi – nari borsa, ular seni o'ldirishi mumkin. Do'stlardan qo'rqlaydi – nari borsa, ular senga xiyonat qilishi mumkin. Befarq odamlardan qo'rqlaydi – ular seni

---

<sup>1</sup> Islomov Z.M. O'zbekiston modernizatsiyalash va demokratik taraqqiyot sari.-T.: "O'zbekiston", 2005.-244-245 bet.

o‘ldirmaydi ham, sotmaydi ham, faqat ularning jim va beparvo qarab turishi tufayli yer yuzida xiyonat va qotilliklar sodir bo‘laveradi».

Har bir inson hayotida g‘oyat muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday fikrlarni unib o‘sib kelayotgan yoshlarning ongiga singdirish, ularni hayot sinovlariga bardoshli etib tayyorlash bizning ota-onas, ustoz-murabbiy, rahbar-rahnamo sifatidagi, shu muqaddas yurt fuqarosi sifatidagi muqaddas burchimizdir.

Bu boradagi eng dolzarb vazifamiz – yuqorida zikr etilgan barcha jarayonlarning ilmiy-nazariy asoslarini, ularning yangi qirralarini mukammal ochib berish, o‘quvchilarimiz, talabalarimizga, keng jamoatchilikka sodda, lo‘nda qilib tushuntirib borish va ularni bugungi zamon talablariga javob beradigan jamiyat qurilishining faol bunyodkorlariga aylantirishdan iborat.

Buning uchun avvalambor taraqqiyotimizning har bir yo‘nalishi – jamiyatimizdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy munosabatlarning rivoji haqida maxsus adabiyotlar yaratish tizimini yanada takomillashtirish zarur. Albatta, bu masala bo‘yicha ijtimoiy fanlar sohasida ma’lum ishlar qilinmoqda, ammo xolisona aytadigan bo‘lsak, bu borada chop etilgan ko‘pchilik darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ommabop adabiyotlarning ham, aksariyat soha mu-taxassislarining ham saviyasi talab darajasida emasligini qayd etishga majburmiz. Bunday noxush holatlarga barham berish vaqt keldi. Hech shubhasiz, yurtimizda erkin,adolatli va farovon hayot qurish jarayonida ijtimoiy-siyosiy munosabatlar, odamlarning ongi va tafakkuri ham o‘ziga xos, shu bilan birga, mutlaqo yangicha ma’no kasb etib bormoqda.

Xususan, shaxs va davlat, inson va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlar yangicha mazmun va shakl topib, yangi xususiyatlar, yangi tamoyillar asosida takomillashib borayotganini sezish, anglash qiyin emas. Binobarin, bularning barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar mohiyatiga, o‘z turmush va tafakkur tarzimizga mos, biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyatni talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi darkor.

Bu boradagi eng muhim vazifa shundan iboratki, har qaysi fuqaro, har qaysi inson jamiyat taraqqiyoti va uni yangilashga, ma’naviy hayotimizni turli tahdid va xurujlardan himoya qilish masalasiga bo‘lgan o‘z burchi va mas’uliyatini aynan ana shu asosda aniqlab olishi zarur. Bu masala haqida chuqurroq o‘ylab ko‘radigan bo‘lsak, shu tamoyillarga tayangan jamiyatning o‘ziga xos ijtimoiy shakl-shamoyili, uning qiyofasi, rivojlanish yo‘llari, ustuvor xususiyatlari to‘g‘risidagi aniq tasavvur turli fikr, bahs-munozaralar orqaligina ayon bo‘lishini e’tirof etishimiz va buni o‘zimizga mezon qilib olishimiz zarur. Bunday keng ko‘lamli va o‘ta muhim masalalarni hal qilishda davlatimiz va jamiyatimiz ijtimoiy fanlar sohasida faoliyat olib borayotgan ilmiy-tadqiqot institutlari, oliv o‘quv yurtlari, turli ijtimoiy markazlar, avvalambor, Ma’naviyat targ‘ibot markazi, Milliy g‘oya va mafkura ilmiy-amaliy markazi tomonidan har tomonlama asoslangan chuqur taklif va tavsiyalarni kutishga to‘la haqlidir.

Ayniqsa, bugungi murakkab mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo‘nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta’sirini o‘rganish, milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo‘lgan zararli g‘oyalar va mafkuraviy xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog‘lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etadi. Faqat ana shunday asosda yoshlarni o‘z fikriga ega, turli ma’naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishish mumkin. Bu borada ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy informatsion va kompyuter texnologiyalarini keng joriy etish, jamiyatimizning mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usul-uslublarni ishlab chiqish, davlat va jamoat tashkilotlari uchun tegishli tavsiya va qo‘llanmalarini tayyorlash bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqur tushunib olishimiz zarur.

XX asr ajoyib ilmiy kashfiyotlar asri, inson koinot sirlari qo‘yniga kirib borgan asr, shu bilan birga bu asrning oxiri diniy qadriyatlarning uyg‘onish davri,

vazmin, behuda urinishlardan xoli diniy ma’naviyatga o‘ziga xos tarzda qaytish davri bo‘lib qoldi.

Jahondagi eng yirik dinlardan biri bo‘lgan islom dini ham shu kabi yalpi intilishlardan chetda qolgani yo‘q. Aksincha, musulmon dunyosida va hatto undan tashqarida ham so‘nggi o‘n yilliklar mobaynida ro‘y bergen voqealar jahon hamjamiyatida “Islom ovozi” deb atalgan hodisa haqida gapirish imkonini berdi.

Ko‘plab siyosatchilar, olimlar, jurnalistlar XX asr oxirida yuz bergen “Islom uyg‘onishi”, “Qayta islomlashish”, “Islom fenomeni” va boshqa turli-tuman nomlar bilan atalgan hodisaning sabablarini tushuntirib berishga harakat qildilar.

Hozirgi zamon tarixida ana shu o‘ta keskin ko‘rinishlar jiddiy mojarolarni, ziddiyatlarni keltirib chiqarishi, barqarorlik va xavfsizlikka tahdid solishi mumkinligi insoniyatni cho‘chitmoqda.

Shundan darak beruvchi fikrlar ancha-muncha to‘planib qolgan. O‘zbekistonning mustaqilligini mustahkamlash, uning xavfsizligini ta’minalash zarurligi nuqtai-nazaridan qaraganda, bu hodisalar bizda ham jiddiy xavf tug‘dirmoqda.

Diniy ekstremizm va fundamentalizm bizning mintaqamiz uchun tug‘dirishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlarni bevosita tahlil qilishga kirishishdan oldin e’tiborni odamlarning diniy e’tiqodlari bilan bog‘liq har qanday muammo g‘oyat nozik ekanligiga, ularning dinning ma’naviy qadriyatları bilan shiorlardan, xususan, islomni qayta tiklash shioridan foydalanayotgan muayyan kuchlar ko‘zlayotgan dinga aloqasi bo‘lmagan siyosiy va boshqa tajovuzkor maqsadlar o‘rtasidagi farqni tushunib olishlariga erishish zarurligiga qaratishni istardim.

Din umuminsoniy axloq meyorlarini o‘ziga singdirib olgan, ularni jonlantirgan, hamma uchun majburiy xulq-atvor qoidalari aylantirgan. Madaniyatga katta ta’sir ko‘rsatgan. Binobarin, din odamlarda inshonch hissini mustahkmlagan. Ularni poklab, yuksaltirgan. Umuminsoniy va ma’naviy qadriyatlarni saqlab qolish hamda avloddan avlodga yetkazishga yordam berib kelgan.

Dinning yuksak rolini e’tirof etish bilan birga, diniy dunyoqarash, tafakkurning insonning o‘zini o‘rab turgan dunyoga, o‘zi kabi odamlarga munosabatning yagona usuli bo‘lmaganligini ham ta’kidlash zarurdir. Dunyoviy fikr, dunyoviy turmush

tarzi ham u bilan yonma-yon va u bilan teng yashash huquqiga ega bo‘lgan holda rivojlanib kelgan.

Hozir mavjud bo‘lgan diniy tartiblarning ko‘pchiligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy burilishlar, tangliklar davrida shakllanganligi bejiz emas. Shu tariqa din insoniyat tarixining turli davrlarida siyosat bilan ozmi-ko‘pmi ochiq-oydin munosabatga kirishgan. Ko‘pincha undan siyosiy va ba’zan bir taraflama, tor maqsadlarda foydalananib kelingan.

Afsuski, insoniyat tarixida diniy ongning ajralmas qismi bo‘lgan odamlardagi e’tiqoddan faqat bunyodkor kuch sifatida emas, balki, vayron qiluvchi kuch, hatto fanatizm (o‘taketgan mutaassiblik) sifatida foydalanganligini ko‘rsatuvchi misollar ko‘p.

Fanatizmning o‘ziga xos xususiyati va ko‘rinishlari avvalambor o‘z dinining haqiqiyligiga o‘ta qattiq ishonish, boshqa diniy e’tiqodlarga murosasiz munosabatda bo‘lishdan iboratdir.

Aynan fanatizm illatiga yo‘liqqan odamlar yoki ularning guruhlari jamiyatda beqarorlik to‘lqinini keltirib chiqarishga qodir bo‘ladilar. Ustiga-ustak ommaviylik unsuri muayyan bir hatti-harakatlar uchun shaxsiy javobgarlik hissini yo‘qotib yuboradi, harakatga “ommaviy xalq harakati” tusini beradi. O‘zining shak-shubhasiz haqligiga, haqiqatni faqat o‘zi bilishiga ishonch hissi so‘nggi choralarga – zo‘ravonlik harakatlariga moyilligi bilan ajralib turadigan diniy ekstremizmning paydo bo‘lishiga zamin yaratadi.

Adolat yuzasidan shuni e’tirof etish kerakki, diniy fanatizmning “otilib chiqishi”ga sof diniy ziddiyatlardan ko‘ra ko‘proq ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy muammolarning hal qilinmaganligi sabab bo‘ladi. Aslini olganda, ayni shu muammolar boshqacha fanatizmni, deylik, bolshevistik, millatchilik ruhidagi fanatizmni keltirib chiqaradi.

Diniy fundamentalistlarning amaldagi dinlar vujudga kela boshlagan dastlabki shart-sharoitlarga qaytish haqidagi da’vatlarini eng asosli va real chora deb hisoblab bo‘lmaydi. Biroq ma’muriy buyruqbozlik tizimida ham diniy hayot to‘xtab qolgan emas. U g‘oyat o‘ziga xos shaklu-shamoyil kasb etgan edi, xolos.

1980-yillarning oxiri, 90-yillarning boshlari, bir tomonidan, jamiyatda dinning mavqeい qayta tiklangan, ikkinchi tomondan esa, shu asosda mojarolar chiqishi uchun sabablar shakllangan davr bo‘ldi.

Birinchidan, avvalgi mafkuraviy tasavvurlar va qadriyatlar tizimining yemirilishi hamda muayyan vaqt mobaynida paydo bo‘lgan bo‘shliqning o‘rnini to‘ldirish zaruratidir.

Kommunistik mafkura ma’naviy qashshoqligi, fanatizmi va millatlarga qarshi qaratilganligi bilan sho‘ro hokimiyatidan keyingi makonda diniy fundamentalizm va an’anaviylik uchun sharoit yaratdi.

Islom dinidagina emas, balki yahudolik, xristian konfessiyalari – Rus pravoslav, Rim-katolik, Arman-Grigorian, Lyuteran cherkovlarida, baptistlik va boshqa jamoalarda ham shu hol ro‘y berdi.

Biz bularning barchasini 130 dan ortiq xalq va millat, 17 diniy konfessiya vakillari yashayotgan O‘zbekiston misolida yaqqol ko‘rishimiz mumkin bo‘ldi.

Kommunistik partiyaning jilovbardorlari diniy jamoalarni xalqlarning aql-idrokini egallash uchun kurashda o‘zlarining raqiblari deb hisoblar edi. Ular o‘zining butun faoliyati davomida dinni kamsitish, ruhoniylarni yo‘qotish va omon qolganlarini bo‘ysundirish uchun eng keskin choralarни ko‘rgan edi. O‘n minglab ruhoniylar qatag‘on qilindi, minglab machitlar va madrasalar buzib tashlandi, yoki omborxonalarga aylantirildi. Bu obidalarning ko‘philigi insoniyat sivilizatsiyasi uchun bebaho me’moriy va tarixiy qadriyat hisoblanar edi.

Mazkur sabablarga ko‘ra, Markaziy Osiyodagi islomiy ma’rifat ta’qiqlab qo‘yilgan sobiq respublikalarida chin ma’nodagi bilimdon islom murabbiylari kamayib ketgan edi. Natijada har xil xurofiy irim-sirimlar, ba’zan jaholatparast udumlar rivoj topdi.

Bunday chalamullalar hozirgi kunda ba’zan eng oliv haqiqatni faqat ularagina bilishlarini, uni butun aholiga zo‘rlab qabul qildirishni va odamlarning taqdirini hal etish huquqini da’vat qilib chiqmoqdalar.

Biz O‘zbekistonda sobiq sovet davridagi xatolarni to‘g‘rilashni istaymiz.

Ikkinchidan, milliy o‘zlikni anglash tuyg‘usi, etnik jihatdan nasl-nasabini izlashga intilish o‘sib bormoqda.

Bu borada Markaziy Osiyoning yangi mustaqil davlatlarida dinning, xususan, islom dinining roli to‘g‘risida g‘arbiy Yevropalik ekspertlarda shakllangan fikr e’tiborga molik. Ularning fikricha, Markaziy Osiyo xalqlarining milliy jihatdan tiklanishi davrida islom bir-biriga qarama-qarshi vazifalarni bajarishga qodir.

Islom dini qoldirgan juda ulkan ma’naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko‘p jihatdan qo‘shilgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda.

Bir tomondan islom dinining madaniy qadriyatlari va an’analari, jahon miqyosida islom dini qoldirgan juda ulkan ma’naviy meros nafaqat mintaqamizning tarixiy rivojlanishiga ko‘p jihatdan qo‘shilgan hissani, balki uning hozir shakllanib borayotgan sifat jihatdan yangi qiyofasini ham belgilab bermoqda.

Ikkinchi tomondan, ommaning siyosiy ongiga ta’sir ko‘rsatish vositalariga ega bo‘lish uchun qurol sifatida foydalaniladi. U bir tug‘ vazifasini bajarishga qodir.

Bu tug‘ ostida esa aniq bir dasturiy maqsadlarni izlovchi emas, balki faqat bir ko‘rsatmaga – hokimiyat uchun olib borish haqidagi ko‘rsatmaga amal qiluvchi kuchlar birlashadi.

Uchinchidan, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy sohadagi keskin o‘zgarishlar. Bu eng muhim bo‘lsa ham ajab emas.

Ana shunday bir sharoitda vahhobiylilik kabi g‘oyalarning aldamchi jozibasi o‘zini yaqqol namoyon etmoqda. Turg‘unlik, tanglik va jamiyatning parchalanish yillarida ajnabiylilikning ommaga yoqish yo‘lidagi urinishlari adolatni yuzaki tushunib taro‘ib qilishda, islomning ma’naviy-ahloqiy meyorlariga qattiq rioya etishni talab qilishda hamda zeb-ziynatdan va manfaatparastlikdan voz kechishni e’lon qilishda namoyon bo‘lmoqda.

Afsuski, bunday davlatlar Markaziy Osiyoning ayrim mintaqalarida yaqin o‘tmishda va hozirgi kunlarda ham keng yoyildi va qo‘llab-quvvatlab kelindi.

To‘rtinchidan, O‘zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari g‘oyat murakkab va ko‘p qirrali islom dunyosining ajralmas qismidir.

Sir emaski, bu dunyoda yetarli darajada rasmiy va norasmiy harakatlar mavjud. Ular yo‘islomning ustunligini tan olish, yoki barcha dinlarga murosasizlik, yohud

islomdan tor milliy manfaatlarni himoya qilishning asosi sifatida foydalanish maqsadini mahkam tutgan holda islomni o‘z siyosiy rejasiga bo‘ysundirmoqda.

Islom omili kuchayishining yuqorida sanab o‘tilgan asosiy sabablari O‘zbekistonda diniy hayotning faollashish jarayonlarini tununishga ham to‘la taalluqlidir.

Davlat ular bilan o‘zaro munosabatda, o‘z dunyoviy hususiyatini hisobga olgan holda, quyidagi tamoyillarga amal qilmoqda:

- dindorlarning diniy tuyg‘ularini hurmat qilish;
- diniy e’tiqodlarni fuqarolarning yoki ular uyushmalarining xususiy ishi deb tan olish;
- diniy qarashlarga amal qiluvchi fuqarolarning ham, ularga amal qilmaydigan fuqarolarning ham huquqlarini teng kafolatlash hamda ularni taaqib qilishga yo‘l qo‘ymaslik;
- ma’naviy tiklanish, umuminsoniy ahloqiy qadriyatlarni qaror toptirish ishida turli diniy uyushmalarning imkoniyatlaridan foydalanish uchun ular bilan muloqot qilish yo‘llarini izlash zarurati;
- dindan buzg‘unchilik maqsadlarida foydalanishga yo‘l qo‘yib bo‘lmasligini e’tirof etish.

“Din yoki e’tiqodga sig‘inish erkiga faqat qonun bilan belgilangan va jamoat havfsizligini, tartibini, salomatligi va axloqni saqlash uchun, shuningdek, boshqa shaxslarning asosiy huquqlari va erkini muhofaza etish uchun zarur bo‘lgan cheklashlar bilangina dahl qilish mumkin.”

Yuqoridagi fikrlar ma’naviyat va madaniyatning bir qismi bo‘lgan din bilan undan muayyan siyosiy maqsadlar yo‘lida foydalanishga urinishlarni aniq ajratib ko‘rsatadi.

Biz din bundan buyon ham aholini eng oliv ruhiy, axloqiy va ma’naviy qadriyatlardan, tarixiy va madaniy merosdan bahramand qilishi tarafborimiz. Lekin biz hech qachon diniy da’vatlar hokimiyat uchun kurashga, siyosat, iqtisodiyot va qonunshunoslikka aralashish uchun bayroq bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaymiz. Chunki bu holni davlatimizning havfsizligi, barqarorligi uchun jiddiy havf-hatar deb hisoblaymiz.

O‘zbekistonga nisbatan islom fundamentalizmi-aqidaparastlikning tahdidi nimalarda namoyon bo‘lmoqda.

Birinchidan. Aqidaparastlikni yoyish orqali dindor musulmonlarning islohotchi davlatga ishonchini yo‘qqa chiqarishda ko‘rinmoqda. Yaxshilik yo‘lidagi o‘zgarishlarning ustuvor shartlari bo‘lgan barqarorlikni, milliy, fuqarolararo va millatlararo totuvlikni buzish yo‘lidagi urinishlarda namoyon bo‘lmoqda. Aqidaparastlarning maqsadi demokratiyani, dunyoviy davlatni, ko‘p millatli va ko‘p dinli jamiyatni obro‘sizlantirishdan iboratdir.

Ikkinchidan. Fundamentalistlarningadolat haqidagi olomonbop, jozibador, ammo baqiroq va asossiz da’vatlariga ko‘r-ko‘rona ergashuvchilar o‘zgalar irodasining quli bo‘lib qolishini anglashimiz lozim. Bu da’vatlar oxir-oqibatda bunday odamlarning aqligagina emas, balki taqdiriga ham hukmron bo‘lib olishini yaqqol anglashimiz, ayniqsa, yoshlarimiz buni aniq tasavvur qilishi lozim.

Bunday nufuzli odamlarga bo‘ysunmay qo‘yish shaxsiy fojeaga aylanib ketishi ham mumkin. Qullarga mutelik, shaxsiy erksizlik asoratiga tushib qolishi, fikrlash, sayharakat va tashabbus ko‘rsatish erkinligining mutlaqo chekshanishi buning eng og‘ir oqibatlaridir. Bizning taraqqiyot sari intilishimizni esa fikrlash, harakat qilish va tashabbus ko‘rsatishsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Uchinchidan. Mamlakat mintaqalari aholisi va ijtimoiy qatlamlar o‘rtasida “haqiqiy” va “soxta” dindorlik belgilari bo‘yicha qarama-qarshilik keltirib chiqarishda ko‘rinmoqda. Bunday hol Jazoirda, Afhonistonda millatlarning parchalanib ketishiga olib keldi.

To‘rtinchidan. O‘zbekistonning janubiy chegaralaridagi qo‘shni mamlakatlarda fuqarolar urushi to‘xtamay, davom etib kelayotganligida namoyon bo‘lmoqda. Bu xolat o‘zlarini chin musulmon, din uchun kurashuvchilar deb hisoblaydigan, mudhish tasavvurlarini xalqimizga zo‘rlab qabul qildirishni istaydigan terrorchilar, jangchilarning yangidan-yangi avlodlarini vujudga keltirmoqda.

Beshinchidan. Musulmon va nomusulmon mamlakatlar, ularning jamoatchiligi ham O‘zbekiston haqida ko‘ngilni sovutadigan fikr tug‘dirishga urinishlarda namoyon

bo‘lmoqda. Ularga bizni goh dinsiz dahriylar qilib, goh esa davlatni islomlashtirishning yashirincha tarafdorlari qilib ko‘rsatishni istaydilar.

Oltinchidan. Islom sivilizatsiyasi bilan islomiy bo‘limgan sivilizatsiya o‘rtasida yalpi qarama-qarshilikni shakllantirishida namoyon bo‘lmoqda. Bu esa jahon hamjamiyatiga qo‘shilish jarayonlariga g‘oyat salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Yangi mustaqil davlatlarning qoloqligini turg‘un bir holatga aylantirmoqda. Undan ham daxshatlisi shuki, odamlarni diniy zaminda “sivilizatsiyalar to‘qnashuvi”ni kutishga majbur qilmoqda.

Yettinchidan. Ommaning ongida din barcha iqtisodiy, siyosiy va xalqaro muammolar hamda ziddiyatlarni hal qilishning universal vositasi degan fikrni qaror toptirishda ko‘rinmoqda.<sup>1</sup>

Keyingi vaqtarda chet el matbuotida O‘zbekiston rahbariyatining o‘zi fundamentalizm havfiga ishonmaydi, lekin mutlaqo aniq maqsadlarni ko‘zlagan holda G‘arbni shu bilan qo‘rkitmoqda, degan fikrlar paydo bo‘ldi.

G‘arbdagi tadqiqotchilar va islomshunoslar orasida fundamentalizm jahon hamjamiyati uchun havfli bo‘limgan, aksariyat hollarda O‘zbekiston davlatlariga qarshi qaratilgan yo‘nalishdir, degan qarashlar keng yoyilgan. Go‘yo aqidaparastlar bu davlatlarni buzib, o‘zlari xohlagancha qayta qurib olishgach jahon hamjamiyati bilan muloqot qilishgadurustroq tayyor bo‘lar emishlar.

Fundamentalistlarning ko‘pchiligi Yevropadagi va Amerikadagi universitetlarda oliy texnik va tibbiy ta’lim olganligi bunday mutaxassislarni ayniqsa quvontirmoqda.<sup>2</sup>

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari”. Toshkent 1997y. 33-47 betlar.

<sup>2</sup>Karimov I.A. O‘zbekiston buyuk kelajak sari. T. 1998. 450-451 betlar.

## **II Bob. Milliy taraqqiyotimiz barqaror rivojiga tahdid solayotgan o‘zga yot g‘oyalar va ularni bartaraf etish yo‘llari.**

### **2.1 Vatanimiz barqaror taraqqiyotiga tahdid solayotgan g‘ayriinsoniy kuchlar va ularga qarshi murosasizlik**

“Ekstremistik” so‘zi “aql bovar qilmas darajada”, “haddan oshish” ma’nolarini bildiradi. Jamiyatda qabul qilingan qadriyatlar va meyorlarga zid qarashlarni ilgari surish, keskin qarashlar va choralarga moyillik ekstremizmning asosiy xususiyati hisoblanadi.

Ekstremistik tashkilotlarga yangi a’zolarning qo’shilishi, ko‘pincha, dinga kiritish, qabul qilishdek shaklu shamoyil kasb etadi hamda bir qancha tanlov va sinov bosqichlarini o‘z ichiga oladi. Ekstremistik harakatlarning eng quyi tabaqasi ko‘pincha siyosiy tusga ega bo‘lmagan, mayda zo‘rlik va jinoyatlar sodir etadigan unsurlar bilan bog‘liq bo‘ladi. Bunday zo‘rlikning siyosiylashtirilishi terrorizm tomon qo‘yilgan birinchi qadam bo‘ladi. O‘z doirasiga yangi kimsalarni tortar ekan, ekstremistik guruh yoki uning rahbariyati so‘zsiz bo‘ysunishni va “ish”ga mutaassibona sadoqatni talab qiladi. Keyinroq esa yollanuvchilar “hamma narsani biluvchi” va ularga yo‘lboshchilik qiluvchi sarbonga duch keladilar.

Ekstremizm va terrorizm ommaviy axborot vositalari orqali yoritilmas ekan, ko‘zlangan “samarani” bermaydi. Shu ma’noda ular o‘zaro bog‘liqdir. Terrorchilik xuruji ommaviy axborot vositalarida qanchalik keng yoritsa, ushbu harakatni sodir etishdan kutiladigan natija shunchalik bevosita va yuqori bo‘ladi. Bu esa u yoki bu harakatni o‘tkazishdan ko‘zlanadigan asosiy maqsad hisoblanadi. Axborot maydoni rivojlanib, tobora to‘yinib borayotgan, ammo uni yetkazishda ham mazmunan, ham shaklan, o‘zibo‘larchilik ustuvorlik qilayotgan hozirgi davrda OAV ekstremizm va terrorizm qo‘lidagi kuchli quronga aylanib qolmokda. To‘g‘ri, OAV o‘z xolicha terrorchilik xurujining “samaradorligini” anglagan xolda tashkil etadigan tizim hisoblanmaydi. Ammo aksariyat hollarda bunga ko‘maklashmoqda, deyish mumkin.

Shuni ta’kidlash lozimki, tarixiy, diniy va milliy xususiyatlar aholining keng qatlamlari bilan muloqot tili va undagi o‘ziga xos urg‘ularni tanlashda muhim

o‘rinni egallaydi. Tabiiyki, hozirgi davrda Markaziy Osiyo mintaqasida kommunistik yoki nasroniylik emas, balki aynan islom shiorlaridan foydalaniladi. Markaziy Osiyo mintaqasi o‘z tarixida islom rivojiga hech qanday aqidaparastlik va jangarilik unsurlarini olib kirmagan. Aksincha, mintaqada islom dini yoyilgan vaqtdan to bugungi kungacha insonparvarlik va bag‘rikenglik an’anasi ustuvor bo‘lib kelmokda. O‘rta asrlarda Arab Sharqida ayrim sufiy birlashmalari jangovarlikni namoyon qilgan hamda inkvizitsiya va jazolash tuzilmalari vazifalarini bajargan vaqtda ham Markaziy Osiyo sufyligida insonga muhabbat va bag‘rikenglik targ‘ib qilinar edi.

Ayni paytda, barcha davrlarda u yoki bu etnik guruhga mansublik borlovchi (birlashtiruvchi) omil sifatida muayyan vazifani bajargani uchun ham Markaziy Osiyoda qaror topgan islom dini milliylikdan xoli emasligini namoyon etganini ta’kidlash zarur. Shuning uchun ham, XX asrning boshlaridagi arab modernistlaridan farqli ravishda jadidlar undan yiroqlashib, o‘z kuchlarini birinchi navbatda ham diniy, ham milliy ongni o‘stirishga sarflagan edilar.

O‘rta asrlarda Markaziy Osiyodagi diniy bag‘rikenglik, insonparvarlik mayllari, fan va san’atning rivojlanishi Arab Sharqida qarshilikni keltirib chiqardi. Natijada XIII – XIV asrlarda bugungi kunda tuzilmalarini shakllantirayotgan ekstremistlar g‘oyaviy jihatdan tayanayotgan aqidaparast salafiylik oqimi yuzaga keldi.

Ibn Taymiyya boshchiligidagi salafiylar Markaziy Osiyo mutafakkir, olim va ulamolarini “islom mohiyatini soxtalashtirish”da ayblab, xalifalikni ideallashtirishga asoslangan qarashlar tizimini ishlab chiqdilar va jihodni unga erishishning asosiy vositasi sifatida e’lon qilib, o‘z g‘oyalariga jangovarlik tusini berdilar. Shunday qilib, salafiylik hokimiyat uchun kurashning maxsuli edi. Shu tariqa, XVIII asrning birinchi yarmida Muhammad Abdul Vahhob salafiylik asosida Arabiston yarim orolida hokimiyat uchun kurash olib borishga moslashtirilgan vahhobiylar ta’limotini yaratdi.

Yangi davr Arab Sharqidaagi mutaassib oqimlar dastlab salafiylik va vahhobiylar asoslangan bo‘lsalarda, keyinroq ularidan ham ilgarilab ketdilar. Bu

tuzilmalarning g‘oyaviy dasturi “ixvoniylit” va “jihod”ga asoslangan bo‘lib, ko‘p sonli jangarilik uyushmalariga g‘oyaviy ozuqa berib kelmokda.

1928 yilda Misrning Ismoiliya shahridagi mакtabda mudarrislik qilgan, sufiylikning xasafiya maktabiga mansub bo‘lgan Xasan Abduraxmon al-Banno musulmon olamini tozalash va musulmon aholi yashaydigan mamlakatlar hududida islom davlatini qurishdek vazifalarni o‘z oldiga qo‘ygan “Musulmon birodarlar” uyushmasini tuzdi. Barcha musulmon va nomusulmon xukumatlarga qarshi jihod – yalpi urush e’lon qilish ushbu maqsadga erishish yo‘li sifatida belgilangan edi. Al-Banno o‘zining “Fannul-mavt” (“O‘lim san’ati”) kitobida mavjud xukumatlarni yo‘q qilishga erishish yo‘llarini asoslab berdi va ilk marta o‘zini o‘zi qurban qilish shaklida jangarilik amaliyotini tayyorlash va amalga oshirish bilan bog‘liq faoliyatni oqlab fatvo berdi.

Harakatning yuzaga kelish shart-sharoitlari, tarixiy vaziyat va o‘sha davrda Misrdagi siyosiy kuchlarning nisbatini o‘rganish ko‘plab tadqiqotchilarga unga mohiyatan terrorizmga asoslangan, trotskiycha uzlucksiz inqilob g‘oyasiga amal qilgan Kominternning barqaror ta’siri bo‘lganini qayd etish imkonini bergen edi. Musulmon Sharqida communistparast guruhlarni shakllantirish uchun sharoitning yetarli emasligi Komintern faollarining terror uslublarini targ‘ib qilish, uni eksport qilish va islomiy tashkilotlarni o‘zlarining siyosiy kurash usullari bilan qurollantirish orqali jamiyatni beqarorlashtirishdek vazifani hal qilishga intilishlariga yo‘l ochdi. Ular bu yo‘lda muayyan muvaffaqiyatga erishdilar ham.

Bundan tashqari, fashistlar Germaniyasi emissarlari faolligi bilan bog‘liq qiziqarli ma’lumotlar ham mavjud. 1940 yilda Xasan al-Banno “Musulmon birodarlar”ning asosiy vazifasi terrorchilik xujumlari uyushtirish bo‘lgan “maxfiy apparat”ni tuzadi. Shunisi e’tiborga molikki, u tomonidan uyushtirilgan ayrim jangovar operatsiyalar fashistlar homiylik qilgan “Masr al-Fatot” tashkiloti yordamida amalga oshirilgan. Shu yillarda “Musulmon birodarlar”ning Suriyadagi bo‘linmasi ham jangarilarning shunga o‘xshash tizimini yaratdi. Ularning Suriyada o‘tkazgan jangovar amaliyotlari esa fashistlar homiylik qilgan Antuan Saade boshchiligidagi Suriya Millatchilik partiyasi jangarilari tomonidan qo‘llab-quvvatlangan.

150 kishi atrofida bo‘lgan “maxfiy apparat”dagi jangarilar beshliklarga bo‘lingan holda maxsus tayyorgarlikdan o‘tganlar. Tayyorgarlik jarayonida jangarilarning irodasini Oliy nozirga butunlay buysundirish, shu orqali ularni al-Bannoning “Fan-nul-mavt” kitobida tushuntirilgan usullarda o‘zini qurbon qilishga. tayyorlaganlar. Al-Bannoning yuz yillar davomida yashirin faoliyat ko‘rsatish va ma’naviy rahbar irodasiga so‘zsiz bo‘ysunish tizimlarini ishlab chiqqan sufiylikning xasafiya maktabiga mansub ekanini yodga oladigan bo‘lsaq bunday texnologiya qayerdan o‘zlashtirilgani oydinlashadi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, jangarilar asosan o‘z fiQoida sobit bo‘lmagan, qat’iyatsiz kishilardan tayyorlanadilar. Chunki bunday shaxslar o‘zining kimligini ko‘rsatish uchun keskin, oqibati puxta o‘ylanmagan qarorlar qabul qilishga moyil bo‘ladilar.

Shunday qilib, islom bayrog‘i ostida faoliyat ko‘rsatayotgan zamonaviy ekstremizmning paydo bo‘lishii va rivojlanishini tarixning muayyan davrida ustuvor bo‘lgan ko‘plab omillar, turli jarayonlarning o‘zaro ta’sirlashuvining natijasi deb tushunish mumkin.

Turli salbiy jarayonlarning omuxtalashuvi islom ritorikasi bilan qo‘shilgan holda keyinchalik ikki sistema o‘rtasidagi kurashda umumiy beqarorlashtiruvchi vosita sifatida qo‘l keldi. Ularning har biri o‘z maqsad va manfaatlaridan kelib chiqib uni moliyalashtirishga, kerakli yo‘nalishga solishga harakat qilib keldi. “Musulmon birodarlar” o‘z tashkilotlarini rivojlantirish uchun Britaniya hukumatidan mablag‘lar olib turgani tarixdan ma’lum. Bu vaqtda britaniyaliklar ulardan arab davlatlari siyosiy sahnida faoliyat yuritayotgan boshqa kuchlarga qarama-qarshi kuch sifatida foydalanishga intilar edi. Biroq shunga o‘xshash holatlarda bo‘lganidek “birodarlar” bu mablag‘lardan terrorchilik xurujlarini amalga oshirishda, jumladan, britaniyalik fuqarolarning o‘zlariga ham xujumlar uyushtirishda foydalanganlar.

Keyinchalik “birodarlik” asosida ko‘plab ekstremistik va terrorchilik uyushmalari vujudga keldi.

Dastlabki aqidaparastlar Hasan al-Banno, Musta-fo as-Siboiy o‘rniga kelgan Sayd Qutb, Muhammad G‘azzoliy, Umar at-Tilmisani, Salohiddin Ashmaviy, Ali Bayonuniy kabi shaxslar ushbu tuzilmalarning faoliyati yanada aggressivroq bo‘lishiga o‘z xissalarini qo‘shdilar.

1953 yilda “Musulmon birodarlar” uyushmasining bir guruh a’zolari Iordaniyada “Xizb at-taxrir al-islomiy” nomli yangi partiyani tuzadi. Bu partiyani Taqiyuddin Nabaxrniy al-Falastiniy boshqaradi. Partiya o‘z oldiga barcha musulmon davlatlari hududida yagona islam davlati – “xalifalik” tuzish maqsadini qo‘yadi. Mohiyatan “Musulmon birodarlar”dan unchalik farq qilmagan ushbu partiya o‘z harakatlarini u bilan muvofikdashtirgan holda olib bordi va terrorchi tuzilmalarga muntazam ravishda jangarilarni tayyorlab berish vazifasini bajara boshladi. Huddi “birodarlar” bilan bo‘lganidek, maxsus xizmatlar bozorida jangarilarga talab bo‘lman hollarda partiya o‘zi to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘poruvchilikni amalga oshira oladigan uyushmalar tuzadi. Bu ohir-oqibatda “birodarlar” bor joyda hizbutchilar, hizbutchilar bor joyda “birodarlar”ning faoliyat ko‘rsatmasligida namoyon bo‘lgan ta’sir doirasini bo‘lib olishdek amaliyotning shakllanishiga olib keldi.

Dunyo bo‘yicha faoliyat olib borayotgan bunday qudratli tashkilotlardan muntazam ravishda kichik terrorchi uyushmalar paydo bo‘lib turadi. XX asrning 70-yillari boshidan musulmon olamida “Junullox”, “Jihod”, “al-Jihod al-islomiy”, “Shabab-Muhammad”, “Al-takfir val-xijra” va boshqa tashkilotlar faoliyat olib bordi. Ularning ko‘pchiligi hozir ham bor bo‘lsada, bugun yuqorida qayd etilgan tashkilotlar a’zolarining eng faol qismini o‘zida to‘plagan va xalqaro tarmoq sifatida faoliyat yuritayotgan “al-Qoida”ning bir qismi sifatida ish olib bormokda. Lekin yangi sharoitda “al-Qoida” muhim bir xususiyatga ega, ya’ni u ekstremistik tashkilotlarni moliyalashtirish va rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan jangarilar va ekstremistlarning xizmatlari bozori sifatida tarkib topdi.

Ushbu tashkilot “al-Qoida” yetakchilarining kam-ko‘stsiz yashashi, qo‘poruvchilik operatsiyalarini amalga oshiruvchi ulkan mashinaning doimiy faoliyat ko‘rsatishini ta’minalash uchun narkobiznes, kidnepping (tovon olish maqsadida kishilarni

garovga olish), boy musulmon oilalaridan qo‘rqtish orqali pul undirish va boshqa ko‘plab manbalar hisobiga moliyaviy mablag‘lar yig‘adi.

Shu o‘rinda jangarilar xizmat bozorida kasbiy mahoratga ega mutaxassislarning paydo bo‘lishi XX asrning 90-yillarida terrorizmning beqiyos darajada avj olishiga zamin yaratganini ta’kidlash zarur. Gap shundaki, sovuq urush tugashi bilan malakali mutaxassislarning bir qismi o‘z davlatlarida ishsiz va e’tiborsiz qoldilar. Bu ularni katta mablag‘larga ega ekspert va yollanma jangchilar bozoriga yetaklab keldi. Ularning say-harakatlari bilan giyohvand moddalar savdosi yangi darajaga ko‘tarildiki, bu o‘z navbatida terrorchilik xurujlarining faollashuviga olib keldi.

Yuqorida ta’kidlanganidek hozirda shunday holat yuzaga keldiki, terrorizmga qarshi turgan kuchlar o‘z vaqtida ikki qutbga mansub mamlakatlar uzoq yillar davomida yaratgan ulkan ajdaho bilan kurashmoqdalar. Jangarilarni yollovchi kishilar shaklu shamoyili noma’lum xalifalik (yoki kommunizm)ni qurish yo‘lida o‘zini o‘zi qurban qilib, qo‘poruvchiliklarni amalga oshirayotgan kishilar ongini egallagan g‘oyalarga mutlaqo befarqdirlar. Yollovchi ekspertlar hech qachon jangovar harakatlarda shaxsan ishtirok etib, o‘zlarini qurban qilmaydilar. Har doim soyada qolgan xolda, ular terrorchilikni narkobiznes bilan qo‘sib, amalga oshiriladigan harakatlar ko‘lami va terrorizmni tayyorlaydigan tarmoqlarni jiddiy kengaytirishga erishdilar. Ular mavjud ekstremistik tuzilmalardan mazkur sohadagi xizmatlar bozorini rivojlantirishda ham ustalik bilan foydalanmoqdalar. Bu bozor esa, ularning xizmatlariga doimiy talabni yuzaga keltiradigan, ba’zan “al-Koida” va uning tuzilmalarini Ham xoxlagan maqomga soladigan asosiy buzg‘unchi bo‘g‘in sifatida chiqmoqda.

Markaziy Osiyodagi ekstremistik oqimlar XX asrning 70-yillari oxiri 80-yillari boshlarida xorijiy ekstremistik markazlar, ayniqla, arab ekstremistik tashkilotlari say-harakatlari bilan shakllana boshlagan edi. Ularning asosiy niyati sobiq SSSRning musulmon aholi yashaydigan respublikalarini o‘z maqsad-tililishlari doirasiga tortishdan iborat edi. Bunday maqsad, ya’ni soxta inqilobni eksport qilish g‘oyasi o‘sha asrning 30-yillarida Xasan al-Banno tomonidan bayon etilgan edi. Natijada Markaziy Osiyo respublikalarida xorijdan kelayotgan moliyaviy yordam

hisobiga jangari sifatida foydalaniladigan shaxslarni tanlash va tayyorlash bilan shug‘ullanadigan tizimni yaratgan guruhlar paydo bo‘ldi.

Uni yaratish chog‘ida chet ellik yurikchilar rahbarligi va maxalliy kuchlar ishtirokida mintaqada beqarorlikni keltirib chiqarish orqali Markaziy Osiyonи jangarilar tayyorlovchi, katta mablag‘lar keltiradigan narkotik moddalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan joyga aylantirishdek maqsad ko‘zlangan edi.

Markaziy Osiyo respublikalari mustaqillikka erishgan 1990 yillarning boshlarida bu guruhlar faollashib ketdilar. Xususan “Islom lashkarlari”, “Tavba”, “Adolat” guruhlari Farg‘ona vodiysida beqaror xolatni yuzaga keltirish uchun harakat qildilar.

Biroq O‘zbekiston davlatining qat’iy qarshiligi, ichki va tashqi siyosatdagi izchilliq xalqning mustaqqilikni mustahkamlash yo‘lidagi harakatlarii qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy hayotning turli sohalarida olib borilayotgan islohotlar ekstremistlarning say-harakatlarini yo‘qqa chiqardi. Ekstremistlarning bir qismi O‘zbekiston hududidan chiqib, avval Tojikiston, keyin esa Afg‘onistonidagi jangarilar safiga qo‘shilib ketdilar.

Markaziy Osiyodagi guruhlar asosida yuzaga kelgan va o‘zini “O‘zbekiston islam harakati” deb nomlagan tuzilma 1990 yillarning o‘rtalariga kelib, ancha baquvvat bo‘lib qolgan “al-Qoida” tarkibiga kirdi. Aksilterror koalitsiyasi tomonidan Afg‘onistonda o‘tkazilgan amaliyotlar vaqtida ularning asosiy qismi yo‘q qilindi.

Hozirda bu tuzilmaning qoldiqlari Pokiston bilan Afg‘oniston o‘rtasidagi chegaradosh hududlarda to‘planib, “al-Qoida” va uning tarafdarlari yordamidan foydalinish imkoniyatiga ega bo‘lish uchun O‘zbekistondagi hizbut taxrircilar bilan aloqalarni tiklash, o‘zaro hamkorlikni yo‘lga qo‘yish va shu yo‘l bilan yana faollashayotganliklarini ko‘rsatishga harakat qilmokda.

Terrorizm tushunchasi. Terrorizm – jamiyatda beqarorlik keltirib chiqarish, aholining keng qatlamlarida vahima va qo‘rquv uyg‘otishga qaratilgan siyosiy kurashning o‘ziga xos usulidir. U yashirin (konspirativ) ruhdagi tashkilotlar tomonidan beqarorlik keltirib chiqarish orqali davlat hokimiyatini egallah maqsadida qo‘llaniladi. Terrorchi uyushmalar ommaviy bo‘la olmagani uchun ham

ko‘p hollarda aholining keng qatlamlari nomidan harakat qilish taassurotini uyg‘otish maqsadida diniy shiorlardan niqob sifatida foydalanadilar.

Terrorizmning eng asosiy xususiyatlaridan biri bunday harakat tarafdarlarining “zo‘rlik davlatni qulatuvchi va hokimiyatga erishishni osonlashtiruvchi parokandalikka olib keladi”, degan g‘oyaga asoslanib harakat qilishlarida yaqqol ko‘rinadi. Terrorizmning yana bir xususiyati hech qanday urush bo‘lmayotgan, tinchlik hukmronlik qilayotgan, jamiyatda demokratik institutlar faoliyat ko‘rsatayotgan bir sharoitda muqobil usullarni atayin inkor etgan holda, siyosiy masalalarni zo‘rlik yo‘li bilan hal qilishga intilishda ko‘rinadi. Bunday siyosiy masalalar o‘z navbatida hududiy, etnik diniy yoki boshqa shaklu shamoyil kasb etishi mumkin. Ma’lumotlarga ko‘ra, 2000-2006-yillar orasida dunyoning 112 mamlakatida 14 ming 934 ta terrorchilik amaliyoti sodir etilgan. Ularning mutlaq ko‘pchiligi Yer yuzining turli mintaqalarida joylashgan, o‘ziga xos etnik diniy yoki boshqa shakldagi muammolar mavjudligi bilan ajralib turadigan Iraq (4606), Iordanning harbiy qirg‘og‘i (1927), Kolumbiya (1135), Ispaniya (732), Tailand (619), Afg‘oniston (591), Xindiston (509), Pokiston (504), Turkiya (477), Isroil (463), Fransiya (446), Nepal (379), Rossiya (284), Gretsiya (230), Filippin (213), Indoneziya (197), Shri-Lanka (131), Italiya (125) va Bangladesh (111) hududlarida amalga oshirilgani ham shunday xulosa chiqarish imkonini beradi.

Amerikalik mutaxassis B.Jenkins terrorizmni eng avvalo, qurbonlardan ko‘ra guvoxlarga qaratilgan va vahima uyg‘otishga yo‘naltirilgan zo‘rlik deb baholaydi. Boshqa bir amerikalik siyosatshunos J.Lojning ta’rifiga ko‘ra, terrorizm bevosita qurbonlardan ko‘ra ko‘prok. odamlar fikriga ta’sir o‘tkazish uchun qilinadigan tahdid yoki kuch ishlatischdir.

Bu ta’rif va baholarda terrorizmning nihoyatda muhim bir xususiyati – uning muayyan siyosiy maqsad yoki amaliy natijalarga emas, balki u yoki bu xuruj natijasida odamlar orasida, ijtimoiy fikrda yuzaga keladigan xavotirli aks-sado, shov-shuvga erishishga qaratilgani ta’kidlangan. Huddi shu ma’noda, alohida olingan har bir terrorchilik xurujining maqsadi ekstremistlarning davlat to‘ntarishini amalga oshirish, fuqarolar urushini keltirib chiqarishdek siyosiy

vazifalar bilan bir-biriga mos kelavermasligi oldindan ma'lum. Keyinchaliq amalda, bu nomuvofiqlik terrorchilar jar solayotgan maqsadlar bilan ular erishayotgan natijalar o'rtasidagi ziddiyatga aylanadi.

Bugungi kunda terrorchilik uslublari ancha kengayganini ta'kidlash zarur. 1970-yillarda biror shaxs yoki siyosiy arbobga qarshi uyushtirilgan terror amaliyoti ko'proq uchragan bo'lsa, hozirda jamoat joylarida, samolyot, avtobus, poyezdlarda portlashlarni sodir etish orqali ko'plab tasodifiy kishilarning qurban bo'lishiga olib keladigan qo'poruvchilikni amalga oshirishga e'tibor berilmokda. Ekspertlarning fikricha, bunday harakatlar birinchi navbatda nobud bo'lganlardan ko'ra, uning guvoxlariga qaratilgandir.

Shuning uchun ham, OAV terrorchilarning o'z maqsadlariga erishishlarida asosiy qurolga aylanib bormoqda. Kidnepping yoki garovga olish ham mohiyatan o'zgarib bormokda. Avvallari garovga olishdan maqsad pul undirish bo'lgan bo'lsa, hozirda terrorchilar asosan xalqaro munosabatlar sohasida va mamlakatda beqarorlikni keltirib chiqarishga mo'ljallagan siyosiy maqsadlariga erishishni ko'zlaydilar. Shu bilan birga, bu jarayonning OAV orqali keng yoritilishi va omma ongida xavotirli aks-sado berishiga erishish orqali guruhning jamiyat oldida tanilishi ham hisobga olinadi. Bunday harakat zamirida, aslida terrorchilarning ojizligi namoyon bo'lishini ko'rish mumkin. Chunki jamiyatda ovoza bo'lishga intilish, odamlarda qo'rquv hissini uyg'otish yo'li bilan tashkilot o'zining bosh maqsadiga erishmoqchi bo'ladi. Shuning uchun ham, ta'sir o'tkazish orqali xulqini modellashtirish va faolligini boshqarish mumkin bo'lgan ruhiy ojiz va qarashlarida sobitlik yo'q kimsalar ijrochi sifatida chikadilar.

Xalqaro terrorizm. Xalqaro terrorizm tushunchasi davlatlar, xalqaro tashkilotlar, siyosiy partiya va harakatlarni beqarorlashtirishga qaratilgan siyosiy qo'poruvchilik faoliyatini ifodalaydi. U alohida siyosiy arboblarni o'ldirish yoki ularga qasd qilish orqali xalqaro ijtimoiy-siyosiy aks-sado beradigan buzg'unchi siyosiy harakatlarni ifodalash uchun xam ishlataladi.

Terrorchilik harakatlarining:

- xalqaro huquq himoyasidagi obyekt yoki subyektlarga qarshi qaratilgani;

- davlatlar chegaralarini buzish orqali amalga oshirilishi;
- a'zolari ikki yoki undan ortiq davlat fuqarolari, shu jumladan, yollanma shaxslar bo'lgan ekstremistik guruuhlar tomonidan sodir etilishi;
- ekstremistik guruuhlar tarkibida qo'poruvchilik harakatlari bo'yicha xorijlik yo'rikchilarning qatnashishi;
- ekstremistik guruh a'zolarining boshqa davlatlar hududida tashkil etilgan maxsus lagerlarda tayyorgarlik ko'rishi;
- tayyorgarlik ko'rish va qo'poruvchilikni sodir etishda xorijiy davlatlar va ekstremistik uyushmalar yordamidan, xalqaro tus olgan noqonuniy quroq-yarog' savdosi va narkobiznesdan keladigan moliyaviy manbalardan foydalanilishi uning xalqaro terrorchilik xuruji ekanini ko'rsatuvchi asosiy belgilardan hisoblanadi.

Muayyan mamlakat hududida sodir etilgan terrorchilik xurujida qayd etilgan u yoki bu belgilarning bo'lishi, unga xalqaro maqom berilishi va shundan kelib chikib, unga mos choralar ko'rlishiga olib keladi.

Terrorizmning moliyaviy manbalari. Zamonaviy terrorizm xilma-xil moliyaviy manbalardan oziklanishi hisobiga faoliyat qamrovini kengaytirishga, moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga harakat qilmoqda. Bunda, shartli ravishda ichki va tashqi manbalarni ajratish mumkin.

Ichki manbalar sirasiga terrorchi tashkilotlarning ochiq, rasmiy faoliyat yurituvchi tuzilmalaridan keladigan daromadini hamda jinoiy yo'l bilan topilgan va uyushma a'zolarining badal to'lashi hisobiga olinadigan mablag'larni kiritish mumkin.

1999 yilda Qozog'izistonga bostirib kirgan, o'zini "O'zbekiston islomiy harakati" deb ataydigan tashkilot jangarilari muzokara olib borish uchun kelgan vakillarni 50 ming dollar hisobiga qo'yib yuborgani, 2003 yilning 27 martida "Sharqiy Turkiston ozodlik tashkiloti"ga mansub terrorchilar Qirg'izistonda 19 ta xitoylik savdogarni o'ldirib, ularning katta miqdordagi pulini o'zlashtirganlari bunga misol bo'la oladi.

Bundan tashqari, deyarli barcha ekstremistik tashkilotlarning a'zolari oylik daromadining 5-20 foizi mikdorida oylik badal ("baytulmol" yoki "taborro") to'lashini ham qayd etish lozim.

Xomiy davlatlar, turli diniy, xayriya tashkilotlari va alohida shaxslar, shuningdek, Yaqin Sharq va Rarb davlatlaridagi ba’zi ijtimoiy guruxlar tomonidan maqsadli yig‘iladigan pullar terrorchi guruhlarning tashqi moliyaviy manbai hisoblanadi. Soha mutaxassislari va ayrim tadqiqottchilar fikricha, bugungi kunda faoliyat ko‘rsatayotgan qariyb 150 ta nohukumat islomiy tashkilotlari jangarilik amaliyotlarini moliyalashtirishda gumon qilinmoqda.

Terrorchi guruhlarga ko‘rsatilayotgan moliyaviy yordam ko‘lамини birgina MDH mamlakatlari xududida faoliyat yurituvchi terrorchi tashkilotlarga 60 ga yaqin diniy tashkilotlar, 100 ga yakin xorijiy kompaniya va o‘nlab banklar homiylik qilayotganida ham ko‘rish mumkin. O‘z navbatida, o‘zini “O‘zbekiston islomiy harakati” deb atovchi tashkilot ham qator homiylar tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi. Mutaxassislar ular qatoriga “al-Qoida”, “Musulmon birodarlar” kabi terrorchi guruhlarni kiritadilar.

Terrorchi guruhlar hozirda o‘z moliyaviy manbalari bilan bank tizimi imkoniyatlari va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan murakkab aloqa tizimlarini shakllantirishga harakat qilmoqda. Natijada, ushbu manbalarni aniqlash va yo‘q qilish tobora qiyinlashib bormokda. Jumladan, ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, 2001 yil 11 sentabr voqealaridan so‘ng, 2003 yilning noyabriga qadar 148 mamlakatdagi 300 dan ziyod tashkilotlarga tegishli 1400 ta hisob rakami “muzlatilgan”. Bundan 200 million dollar zarar ko‘rganiga qaramay, terrorchi guruhlar uz moliyaviy manbalari bilan yangi aloqalarni shakllantirish hisobiga jangovar qobiliyatlarini qayta tiklab olishga intilmoqda.

Terrorizmning moliyaviy manbalariga bardam berishga xalqaro miqyosda alohida ahamiyat berilmokda. Dunyoning ko‘pgina davlatlari, jumladan, O‘zbekistonda ham terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash haqidagi maxsus qonunlar qabul qilingan. Mazkur yo‘nalish xalqaro tashkilotlarning ham diqqat markazida turgan vazifalardan hisoblanadi. Xususan, oxirgi yillarda Usoma bin Lordin va boshqa terrorchi shaxslar hamda tashkilotlarga tegishli dunyo banklaridagi hisob raqamlarini “xibsga olish”ga bag‘ishlangan BMT Xavfsizlik Kengashining 1333,

1390 va 1455-qarorlari qabul qilinib, ular deyarli barcha davlatlar tomonidan ijo etilmoqda.

Qarshi kurash strategiyasi. Zamonaviy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash davlatlarning doimiy e'tiborini, uning oldini olish va bartaraf etishga qaratilgan ko'p qirrali siyosatni amalga oshirishda sabrlilik va sobitlikni talab etadi. Shakllanib, keng tarmoq otgan terrorizmga qarshi kurashda kuch ishlatmagan davlatlar zaiflashib, o'z xalqi va mamlakati osoyishtaligi va barqaror rivojlanishini xavf ostida qoldiradi.

Ekstremizm va terrorizm bir-biri bilan bog'liq bo'lgan yagona jarayonning birin-ketin rivojlanalanadigan bosqichlaridir. Shunday ekan, terrorizm global miqyosga chiqqan hozirgi sharoitda, davlat unga qarshi kurashda ichki va tashki omillarning ta'sirini hisobga olgan holda, muvozanatlashtirilgan strategiyani ishlab chiqishi kerak.

Shu nuktai nazardan qaraganda, O'zbekiston Respublikasining o'z taraqqiyotining o'ziga xos jihatilarini, haligacha terrorizm, narkobiznes, noqonuniy quro-yarog' savdosi kabi qator tahdidlar mavjud bo'lgan Markaziy Osiyodagi kuchlar nisbatini hisobga olib, ishlab chiqqan ichki va tashqi siyosati alohida ahamiyatga molikdir.

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ushbu strategiyasida mamlakatimizning xalqaro hamkorlik dasturlarida, davlatlarning terrorizmga qarshi kurashdagi say-harakatlarini birlashtirishda faol ishtirot etishini ta'minlash maqsadlari o'z ifodasini topgan.

Bu sohada o'zbek tashqi siyosatining negizini o'z kuchlarini hozirgi davrning asosiy tahdidi bilan qarshi kurashga yo'naltirishga tayyor barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilish tashkil etadi. Shu o'rinda, O'zbekiston amalda mintaqada va butun dunyoda xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan barcha xalqaro dastur va ikki tomonlama hamkorlik aloqalarida faol ishtirot etayotganini ta'kidlash zarur.

Shuningdek, O'zbekiston davlatining barqaror taraqqiyot va xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan ichki siyosati ham ekstremizmning paydo bo'lishi va rivojlanishi hamda ekstremizmdan terrorizmning kelib chiqishini bartaraf etishga qaratilgan faol strategiyadir. Unda ekstremizmga qarshi kurash orqali bunday

tuzilmalar bag‘rida voyaga yetishi mumkin bo‘lgan terrorchilar faoliyatining oldini olishga intilish o‘z aksini topganini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda o‘zbek davlati tomonidan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bu kurash strategiyasining asosiy mazmunini tashkil etadi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan fuqarolik jamiyatini qurish, iqtisodiyot, qishloq xo‘jaligi, ta’lim, xususan, o‘rta maxsus ta’lim tizimi, sog‘liqni saqlash, sport va boshqa sohalardagi keng ko‘lamli ijobiy o‘zgarishlar bu strategiyaning tarkibiy qismi, Markaziy Osiyo mintaqasidagi axvolni belgilab beradigan, mamlakatdagi barqarorlik va taraqqiyotni ta’minalashga xizmat qiladigan chora-tadbirlar tizimi hisoblanadi. Kuchli iqtisodiyotga ega O‘zbekistonning barqarorligi butun mintaqaning barqarorligini bildiradi.

Bu, sog‘lom muvozanatga asoslangan, serqirra va har xil darajali strategiyada ma’naviyat va mafkuraviy tarbiya alohida o‘rin tutadi.

Mutaxassislar ekstremizmning paydo bo‘lishi va rivojlanishiga sabab bo‘lgan omillar ichida mafkuraviy bo‘shliqning ta’siri va qadriyatlar mo‘ljallaridagi beqarorlikda namoyon bo‘lgan nomutanosiblikni alohida ajratib ko‘rsatadilar. Mafkuraviy bo‘shliq ko‘pincha kishilarda jamiyatdagi mavjud holatni, ijtimoiy muhitni noto‘g‘ri idrok etishga, uning irodasini boshqa kishiga bo‘ysundirish va dunyoqarashida agressivlikni shakllantirishga xizmat qiladigan nosog‘lom g‘oyalar bilan to‘ldirilishiga zamin yaratadi. “Zombilashtirish” deb ataladigan bu texnologiya yaxshi shakllanmagan ma’naviyat, bo‘sh iroda va nosog‘lom intilishlar muhitidagina ta’sir kuchiga ega bo‘ladi.

Shuning uchun ham, O‘zbekiston ekstremizmga qarshi kurashda, uning paydo bo‘lishi va rivojlanishini bartaraf etish ishlarida g‘oyaviy tarbiya, xususan, mamlakat yosHLarida yuksak ma’naviyatni shakllantirish masalalariga alohida e’tibor bermoqda. Zero, bunday yondashuvda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga, milliy o‘zlikni tiklash va mustaqillikni mazmunan boyitishga asoslangan milliy g‘oya, ma’naviyat va ma’rifat, to‘g‘ri shakllantirilgan ong

ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash hamda jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning eng muhim tizimi sifatida yuzaga chiqadi.

## **2.2 Hozirgi davrda ma’naviy tahdidlarga qarshi kishilarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi .**

Istiqlolning dastlabki yillaridanoq bevosita mamlakatimiz Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahbarligida tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillari aniq belgilandi hamda og‘ishmay amalga oshirila boshlandi, deyish mumkin. Bu tamoyillarga davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning dahlsizligi, nizolarni tinch yo‘l bilan hal etish kabi xalqaro huquqning umum e’tirof etilgan qoidalari asos qilib olindi. Jahan hamjamiyatida faol ishtirok etish va O‘zbekistonning milliy manfaatlariga mos keladigan ko‘p tomonlama siyosat yuritish davlatimiz mustaqilligini mustahkamlashning muhim shartidir. Buning uchun eng muhim shart-sharoit – O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida tan olinganligidir. Endilikda O‘zbekiston jahon siyosat maydonida o‘z mavqeini tobora oshirib bormoqda.

Globallashuv sharoitida O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining asosida davlat mustaqilligi, respublikadagi barcha xalqlarning manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi yotadi. Tabiiyki, bunda sheriklarning manfaatlari, ularning geosiyosiy yo‘nalishlari hisobga olinadi. Chunki mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab ko‘rsatganidek, mushtaraklik bo‘lmasa, tashqi siyosat ham bo‘lmaydi.

Jahon hamjamiyati kengayib, yosh mustaqil davlatlarning siyosiy mustaqilligi kuchayib borayotgan bir sharoitda, Markaziy Osiyo davlatlari oldida ham o‘z mustaqilligining dastlabki yillarida bir qator dolzarb vazifalar mavjud edi. Jahan, xususan, Markaziy Osiyoni mafkuraviy bo‘lib olishga urinishlarning asosida muayyan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy geosiyosiy manfaatlar yotadi. Xalqlarni ma’naviy-mafkuraviy tobe etishga bo‘lgan harakat hozirgi davrning asosiy xususiyatidir. Markaziy Osiyodagi mafkuraviy jarayonlar mintaqa, davlatlarning bir tomonidan o‘z individual milliy-mafkuraviy qiyofasini shakllantirish va mustahkamlash, ikkinchi tomonidan globallashayotgan umuminsoniy mafkuraviy jarayonlarda faol ishtirok etishga kirishishdan iborat.

Hozirgi globallashuv davrning xususiyatlari mafkuraviy jarayonlarning umuminsoniy, gumanistik bunyodkorlik yo‘nalishini kuchaytirish uchun mintaqadagi har bir davlatdan nafaqat o‘z ichki imkoniyatlaridan, balki tashqi omillardan ham oqilona foydalanishni taqozo etadi.

Globallashuv sharoitida fuqarolar mafkuraviy immunitetini yuksaltirishda amalga oshirilgan tahlillar asosida quyidagi takliflarni bildirishimiz mumkin:

- zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimini yanada takomillashtirish va davlatlararo munosabatlarda teng huquqli manfaatlar ustuvorligini ta’minlashning yangi chora-tadbirlarini ishlab chiqish zarur;

- malum bir mamlakat hududidagi millatlararo munosabatlar shu millatga mansub bo‘lgan boshqa davlat fuqarolari hayotiga ham xavf solishi mumkinligini nazarda tutib, mintaqaviy muammolar yechimini topishda xalqaro munosabatlar tizimining va davlatlar tashqi siyosati mexanizmining yangi yo‘nalishlarini qidirib topish lozim;

- global muammolar turkumiga kiruvchi masalalarni hal etishda mamlakatimizning Birinchi Islom Karimovning BMTning 48, 50-sessiyalarida qilgan ma’ruzalarida bayon etilgan g‘oyalarni to‘liq amalda joriy etish imkoniyatlarini topish maqsadga muvofiqdir;

- Markaziy Osiyo azaldan muhim geostrategik va geosiyosiy makon bo‘lib kelgan. Bu yerda yirik xorijiy davlatlar manfaatlarining to‘qnashuvi har doim kuzatilgan, bunday tendensiyalar oxirgi paytda ayniqsa kuchayib borishi kuzatilmoxda. Bunda esa mintaqaning ayrim davlatlarida beqarorlik, xalq va hokimiyat orasidagi to‘qnashuvlar kabi destruktiv holatlarning yuzaga kelish xavfi kuchaymoqda. Bunday holatlarni bartaraf etishda mintqa davlatlari axborot xavfsizligini ta’minlash borasida bирgalikdagi sa’y-harakatlarni kuchaytirmoqlari kerak;

- millatlararo munosabatlarni yangi pog‘onaga ko‘tarish, diasporalarning tarixiy vatanlari bilan aloqalarini tiklash uchun imkoniyat yaratish darkor. Ushbu imkoniyatni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasida joylashgan elchixonalar qoshida hujjatlar to‘planadigan maxsus burchaklar tashkil etish zarur;

- elchilik aloqalari, elchixonalar orqali diasporalarning tarixiy vatanlari bilan aloqalari borasida qilinayotgan ishlar haqidagi ma'lumotlarni saqlaydigan arxiv tashkil qilish zarur. Chunki RBMMda faqat ba'zi milliy-madaniy markazlar faoliyatini yorituvchi hujjatlar saqlangan. Vaholanki, qilinayotgan ulkan ishlarni tajriba va o'rnak sifatida nazorat qilish va o'rganish zarur;

- xorijda ishlashga yuborilayotgan kadrlar masalasiga alohida e'tibor bergen holda, aynan ushbu soha mutaxassislariga mos keladigan, milliy g'oyani singdirishga qaratilgan o'quv qo'llanma va adabiyotlar yaratish lozim;

- xorijiy davlatlarga o'qishga yoki ishlashga borayotgan mutaxassislarni milliy g'oya bilan sug'orilgan mafkuraviy immunitetini mustahkamlash maqsadida alohida elchilarining malakasini oshirish Akademiyasini tashkil etish zarur. O'zbekiston Respublikasi Oliy vao'rta maxsus ta'lim maskanlarida 80 soatlik diplomatik o'quv kurslar tashkil qilish kerak. Bu diplomatik o'quv kurslarda "Milliy istiqlol g'oyasi" fani bo'yicha malakani oshirishga ajratilgan. Respublika "Ma'rifat va ma'naviyat" markazi qoshida ochilgan "Milliy g'oya" targ'ibot bo'limining faoliyati esa faqat aholi o'rtasida milliy g'oyani targ'ib qilishga qaratilgan.

Shuni ta'kidlash joizki, globallashuv jarayoni yer yuzidagi mamlakat va xalqlarni shu darajada uzviy bog'lab qo'ymoqdaki, buni bashariyat tarixida shu paytga qadar hech qaysi vosita amalga oshira olmagan. Bu jarayon shunchalik kuchayib bormoqdaki, hozirdanoq dunyoning biron hududi uning ta'siridan holi qolayotgani yo'q.

O'tgan asrning oxirlarida paydo bo'lgan "globallashuv" jahon mamlakatlari iqtisodiy va moliyaviy hayotining yalpi umumlashib borayotganini ifoda etar edi. Bugungi kunga kelib esa u keng qamrovli tushunchaga aylandi. U davlatlar va xalqlar hayotining barcha sohalarida yalpi umumlashuv jarayonini anglatmoqda. Dunyoda yuz berayotgan shiddatli jarayonlarning har bir mamlakatga o'tkazayotgan salbiy ta'sirini kamaytirish va ijobjiy ta'sirini kuchaytirish uchun shu hodisaning mohiyatini chuqurroq anglagan, uning xususiyatlarini o'rgangan holda milliy g'oyaga suyanish va asoslanish lozim. Chunki milliy g'oya xalqni

birlashtirib, jamiyatni jipslashtiruvchi, chetdan bo‘layotgan g‘oyaviy, ma’naviy tahdidlardan himoyalashga qaratilgan kuchdir. Jahondagi globallashuv jarayonlari ana shu g‘oyaga bo‘lgan ehtiyojini keskin kuchaytiradi.

Globallashuv sharoitida milliy g‘oyaning asosiy vazifalaridan biri insoniyatga xavf solayotgan global muammolarning tahdidini keng tashviqot qilish va unga qarshi kurashda jahon xalqlari birligini vujudga keltirishdir. Shuning uchun ham milliy rivojlanishga qaratilgan g‘oyalarda jahon xalqlarining birligini vujudga keltirishning umuminsoniy g‘oyaga aylanishi bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylangan.

Hozirgi davrda ilmiy-texnika taraqqiyoti xalqaro munosabatlarning texnik-texnologik aloqa vositalarini, ommaviy axborot ayrboshlash infratuzilmasini va murakkab kommunikatsiyasini vujudga keltirishi bilan mafkuraviy munosabatlarni jadallashtirib, universallashtirib yubordi. Xususan, axborot ayrboshlashning kompyuterlashtirilishi, elektron pochta, Internet, kosmik tele va radio aloqa tizimdarining rivojlanishi, bu sohadagi intellektual salohiyatlarning miqdori va sifatining oshib borishi mafkuraviy munosabatlarning globallashuviga olib keldi.

Ilmiy izlanishlar va konsepsiyalarni tahlil qilish natijasida “mafcura” fenomeni mustaqil intellektual xodisa ekanligiga ishonch hosil qildik. U globalashuv sharoitida hamma davlatlar, jamiyatlar, xalqlarning o‘zaro munosabatlarida samimiylilik, insoniylik, ishonch, murosa kabi xislatlarning negizini tashkil etadi.

Globalashuv asri hisoblangan XXI asrda mafkura jamiyatni o‘tmish, bugun va kelajak bilan bog‘lovchi analiz chizig‘i hisoblanib, insonlarni hayotning mazmunini chuqurroq anglashga, kelajakka o‘z kuchi va bilimiga ishongan holda, bir mafkura atrofida birlashib, orzularni amalga oshirishga undaydi.

XXI asrda “mafkuraviy”, “mafkuralashtirish”, “mafkuraviy makon”, “mafkuraviy poligon”, “mafkuraviy immunitet”, “mafkuraviy profilaktika” kabi tushunchalar insonning zamonaviy va milliy an‘analarning uyg‘unligidagi madaniy saviyasi, insonparvarligi, ozodligi va mas’uliyati tushuniladi; insonlarning tinchlik madaniyati, muomala va xavfsizlik madaniyatini amalga oshirish yo‘lida

hamkorlikning muhimligi anglanadi; xalqaro terrorizm va zararli mafkuralarning tarqalishiga qarshi birgalikda kurashish tushuniladi.

Globallashuv asrida dunyoda ko‘p madaniyatlar bo‘lgani kabi, ko‘p mafkuralar ham mavjudligi tarixiy qonuniyatdir. Demak, har qanday jamiyat, har qanday xalq va davlat tarixiy taraqqiyotning muayyan davriga xos iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ma’naviy taraqqiyot tamoyillariga ega bo‘lgani singari, o‘z rivojlanishining pirovard maqsadlariga xizmat qiladigan g‘oya va mafkuraviy tamoyillariga ham ega bo‘lishi zarur. Bunday g‘oyaning asosini esa quyidagilar tashkil etadi:

- o‘zini tashkil etib turgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy tuzilmalarga mos keladigan, o‘zini turli yot va zararli mafkuralarning xurujidan saqlashga xizmat qiladigan g‘oyalar tizimiga ega bo‘lishi zarur;
- o‘zining tarkibiy tuzilishiga mos keladigan g‘oyaviy-mafkuraviy tizimga ega bo‘lmas ekan va shu asosda o‘ziga mansub alohida mafkuraviy immunitetni hosil qila olmas ekan, o‘zini ichdan yoki tashqaridan buzishi mumkin bo‘lgan begona g‘oyalarning ta’siri uchun ochiq nishon bo‘lib qolaveradi.
- Globallashuv jarayonida milliy mafkuraga axborot xuruji kuchli ta’sir o‘tkazadi. Bu bevosita davlatlararo munosabatlarda va davlatlar tashqi siyosatida milliy-g‘oyaviy asoslarga tayanishni taqozo etadi. Har bir davlat o‘z siyosiy manfaatlari doirasida o‘z milliy-siyosiy qiyofasini yo‘qotmasligi lozim.

Bugun biz tez sur’atlar bilan o‘zgarib borayotgan, o‘ta shiddatli va murakkab bir davrda yashamokdamiz. Globallashuv nomini olgan ushbu fenomen mutlaqo yangicha ma’no-mazmundagi iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, manaviy-ma’rifiy makonning shakllanishini hamda mavjud milliy va mintaqaviy muammolarning jahon miqyosidagi muammolarga aylanib borishini ifoda etmoqda.

Globallashuv ta’sirida dunyo tobora bir butun va yaxlit bo‘lib bormokda. Mamlakatlar va xalqlar taraqqiyoti bir-birini taqozo qiluvchi hodisaga aylanmokda. Davlatlar va xalqlar o‘rtasidagi hamkorlik aloqalarining kuchayishi, xorijiy investitsiyalar, kapital va tovarlar, ishchi kuchining erkin harakati uchun qulayliklar vujudga kelishi, ko‘plab yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, zamonaviy kommunikatsiya va axborot texnologiyalarining, ilm-fan yutuqlarining tezlik bilan

tarqalishi, turli qadriyatlarning umuminsoniy negizda uyg‘unlashuvi, sivilizatsiyalararo muloqotning yangicha sifat kasb etishi taraqqiyot sur’atlarining beqiyos darajada tezlashuviga olib kelmoqda.

Shu bilan birga, ezgulik va yovuzlik o‘rtasida azaldan davom etib kelayotgan kurash ham globallashuv ta’sirida o‘ziga xos shaklu shamoyil kasb etayotganini ta’kidlash zarur. Mmamlakatimizning Birinchi Prezidenti so‘zlari bilan aytganda, bugungi kunda zamonaviy axborot maydonidagi harakatlar shu qadar tig‘iz, shu qadar tezkorki, endi ilgarigidek, ha, bu voqeа bizdan juda olisda yuz beribdi, uning bizga aloqasi yo‘q, deb beparvo qarab bo‘lmaydi. Ayni paytda, inson ma’naviyatiga qarshi yo‘naltirilgan, bir qarashda arzimas bo‘lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashuv shiddatidan kuch olib, ko‘zga ko‘rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo‘lmaydigan oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ham unutmaslik lozim.

Globallashuv va uning salbiy oqibatlari haqida gap ketar ekan, diniy ekstremizm va terrorizmdek xatarli, inson va jamiyatning tinch va osuda hayoti hamda taraqqiyotiga tahdid tug‘dirayotgan hodisalar ham umuminsoniy miqyos va ko‘lam kasb etganini ta’kidlash zarur.

Globallashuvning ijobiy jixatlari mamlakatlar va xalqlarning faqat xamjixat harakati natijasida chuqurlashib borishi, ularning har birining taraqqiyotiga xizmat qilishi mumkin bo‘lganidek, uning salbiy oqibatlarini, shu jumladan, xalqaro ekstremizm va terrorizmdek balo-qazolarning oldini ham kuchlarni birlashtirgan, yakdil harakat qilgan holda bartaraf etish mumkin. Bunda global miqyosdagi ma’naviy-ma’rifiy hamkorlikning o‘rni va ahamiyati beqiyosdir.

Tizimli va tadrijiy tashkil etilgan g‘oyaviy – tarbiyaviy va ma’naviy – ma’rifiy ishlar diniy ong radikallashuvining oldini olish hamda fuqarolarda mafkuraviy immunitetni mustahkamlashning asosiy vositalaridan biri hamda ekstremizm na terrorizmga qarshi kurashning hayotiy va ta’sirchan omillaridan biri sanaladi.

Ko‘pchilik mamlakatlarda mafkuraviy va ma’naviy-ma’rifiy tarbiya tizimi dunyoviy mohiyatga ega ta’lim-tarbiya muassasalarida yoshlarga din haqida ilmiy asoslangan bilimlar berish va diniy muassasalar imkoniyatlaridan diniy-ma’naviy

tarbiyaning muhim o‘chog‘i sifatida foydalanishdek jixatlarni qamrab oladi. Ularni ro‘yobga chiqarishda turli, shu jumladan, anchagina qismi xalqaro tashkilotlar maqomiga ega bo‘lgan noxukumat, notijorat tashkilotlar ham faoliyat ko‘rsatmokda.

Diniy-siyosiy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning ohirgi yillardagi xalqaro tajribasida dinlararo bag‘rikenglik g‘oyasi targ‘iboti alohida o‘rin tutmoqda. Bugun uni targ‘ib qilayotgan o‘nlab tashkilotlar dunyo bo‘ylab faoliyat yurgizmoqda. Ularning orasida YUNESKO kabi global miqyosda amal qilayotgan nufuzli xalqaro muassasalar ham bor.

Bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarda diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashning xalqaro siyosiy-huquqiy zaminini mustahkamlash bilan birga, uning ma’naviy-ma’rifiy asoslarini kuchaytirish jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Shu bilan birga, diniy ekstremistik tashkilotlarga munosabat, ular faoliyatini baholashda ikki yoklama standartlardan voz kechish, bunday tafakkur va yondashuv tarziga barham berish, ayniqsa, o‘sib kelayotgan avlod ongida xususiy manfaatlar va maqsadlardan qat’i nazar, insonning ertangi kuni va jamiyat istiqboli uchun daxldorlik tuyg‘usini tarbiyalash va bu boradagi g‘oyaviy-tarbiy ishlarni tizimli tashkil etish global hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etayotganini xam ta’kidlash zarur.

Bugungi kunda diniy ekstremizm va xalqaro terrorizm dunyo mamlakatlari uchun nafaqat tashqi, balki ichki xavfsizlikka ham daxldor masalaga aylandi. Zero, diniy ekstremistik va xalqaro terrorchilik tashkilotlari jangarilik usullari bilan hokimiyat uchun kurashuvchi guruxlarni shakllantirish, ularni har tomonlama rag‘batlantirish va qo‘llab-quvvatlashga intilmoqdalar.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmning xavfi 1990 yilda Namangan va Andijonda, 1990-1996-yillarda Tojikistonning fuqarolik urushi davomida, 1999 yili 16 fevralda Toshkent shahrida, 1999-2001-yillari Qirg‘izistonning Botken, O‘zbekistonning Surxondaryo va Toshkent viloyatlarida, 2004 yilning mart-aprel oylarida Toshkent shahri va Buxoro viloyatida, 2004

yilning iyul oyida Toshkent shahrida, 2005 yili may oyida Andijonda amallga oshirilgan terrorchilik harakatlari timsolida o‘zini yaqqol namoyish etdi.

Mustakillikka erishgan O‘zbekiston Respublikasi diniy aqidaparastlik, mutaassiblik, ekstremizm va terrorchilikning mintaqaviy va umumbashariy miqyosdagi xavf ekanidan kelib chiqib, jahon hamjamiyati unga qarshi birgalikda kurashishi lozimligi to‘g‘risidagi g‘oyani jahonning nufuzli tashkilotlari minbarlaridan e’lon qildi. To‘g‘risini aytish kerak O‘zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi kurash siyosatining mohiyatini rivojlangan mamlakatlar va dunyoning nufuzli xalqaro tashkilotlari kechroq anglatdi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993 yil 28 sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma’ruzasida jahon hamjamiyatini Afg‘oniston muammosini izchil o‘rganish va yechishga chaqirdi. “Tolibon” harakatining diniy mutaassib va jangarilik faoliyatni xaqidagi ushbu haqqoniyligini fikr kechikib bo‘lsa-da, tan olindi.

Ma’lumki, “Tolibon” harakati Afg‘onistonning barcha hududlarida o‘z hukmronligini o‘rnatish uchun “al-Qoida” xalqaro terrorchilik tashkiloti bilan hamkorlikda 1999 yili Shimoliy Afg‘onistondagi o‘zini o‘zi boshqarib turgan mahalliy xalqlar hududlariga bostirib kirdi va ularga qarshi ommaviy terror harakatlarini amalga oshirdi. Shu davrda ularning O‘zbekistonga qarshi xuruj qilishi xavfi paydo bo‘lgan edi. Bu diniy mutaassiblik global xavfga aylanganini, u xalqaro terrorchilik faoliyatni kuchayishiga olib kelishi mumkinligi va unga qarshi jahon hamjamiyati tezkorlik bilan kurashishi lozimligini yana bir bor tasdiqladi. “Al-Qoida” tashkiloti 2001 yil 11 sentabrda AQShda uyushtirgan terrorchilik harakatlaridan so‘ng ushbu tashkilotning hamkor bo‘lgan “Tolibon”<sup>1</sup> harakatining xam global xavf ekani tan olindi va unga qarshi aksilterror kurashi boshlandi.

Xalqaro terrorizmga qarshi kurash koalitsiyasi tarkibida O‘zbekistonning ishtiroki uning bu sohadagi ichki va tashqi siyosatining mantiqiy davomi bo‘ldi. O‘zbekiston xalqaro aksilterror koalitsiyasining faol ishtirokchisi sifatida AQSH

---

1. <sup>1</sup> Azimov A. “Diniy ekstremizm va fundamentalizm”-T.:Oliy va O‘rtta maxsus talim vazirligi.1998.3b.

harbiy havo kuchlarining transport vositalariga Afg'onistonda qidiruv-qutqaruv va insonparvarlik yordamini amalga oshirish uchun o'z havo hududini ochib berdi va Xonoboddagi harbiy aerodromning bir qismini AQSH harbiy havo kuchlariga vaqtincha foydalanishga berdi. Aksilterror harakatining maqsad va vazifalarini bajarish asosan tugagani sababli O'zbekiston Respublikasining murojaatiga binoan AQSH harbiy havo kuchlari ushbu aerodromni 2006 yili tark etdi.

2001 yilning 28 sentabrida BMTning Xavfsizlik Kengashi 1373(2001)-sonli rezolyusiyani qabul kilib, BMT doirasida terrorizmga qarshi kurash qo'mitasini tuzdi. Ushbu qo'mitaning tuzilishi va faoliyati O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov taklif qilgan terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazining konsepsiyasiga hamohangdir. Zero, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti 1999 yilning noyabrida Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkilotining (YEXHT) Istanbulda bo'lib o'tgan sammitida va 2000 yilning 7-8 sentabrida Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan BMT Bosh Assambleyasining "Mingyllik sammiti"da BMT tuzilmalarida terrorizmga qarshi kurash xalqaro markazini tuzish taklifini bayon qilgan edi. Ushbu tashabbus ro'yogga chiqqanidan so'ng, O'zbekiston 2001 yil dekabr oyida va 2002 yilning avgust oyida BMT Xavfsizlik Kengashining yuqorida zikr etilgan rezolyusiyasining bajarilishi xususida BMTning terrorizmga qarshi kurash qo'mitasiga maruzalar takdim etdi.

O'zbekistonning diniy ekstremizm va xalqaro terrorizmga qarshi olib borayotgan siyosatining maqsadi mintaqada va global miqyosda tinchlik, barqarorlikni saqlash, mamlakat mustakilligi va ravnaqi, xalqiing erkin va farovon hayotini ta'minlashdir. Ekstremizm va terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurash xaqida gap ketar ekan, O'zbekiston Afg'onistonda tinchlikka erishishda BMTning faolligini kuchaytirish, Afg'oniston ichki ishlariga tashqi kuchlarning aralashuvini bartaraf etish va qurol-yarog' olib kirishni taqiqlash, ekstremizm va xalqaro terrorizmning moliyaviy manbai bo'lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi xalqaro mikyosda kurashish kabi masalalarda ham e'tiborga molik takliflarni ilgari surganini ta'kidlash zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Prezidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan 1998 yilda tashkil topgan “6+2” guruhining BMT rahbarligida 1998-1999-yillarda olib borgan faoliyati Afg‘onistonda ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashda katta ahamiyatga ega bo‘lganini ta’kidlash zarur. Bu guruh Afg‘oniston bilan chegaradosh olti davlat (Xitoy, O‘zbekiston, Pokiston, Eron, Tojikiston, Turkmaniston) va mintaqaga tashqarisidan Afg‘onistondagi vaziyatga jiddiy ta’sir ko‘rsatib turgan ikki davlat – AQSH va Rossiya Federatsiyasining yuqori darajadagi vakillaridan tashkil topgan edi. Bu guruh bir kator majlislar, muhokamalar va muzokaralar o‘tkazib, ularga Afg‘onistonda bir-biri bilan kurashayotgan kuchlar vakillarini jalg qilib, “Afg‘onistondagi mojaroni tinch yo‘l bilan bartaraf etishning asosiy tamoyillari to‘g‘risida”gi Toshkent Deklaratsiyasini va mintaqaviy xavfsizlik masalalari bo‘yicha bir qator boshqa xujjalarni ishlab chiqdi. 1999 yilning 28 iyulida BMT Xavfsizlik Kengashi majlisida “6+2” guruhi ning Toshkent uchrashuvi yakunlari yuksak baholandi.

Xalqaro tashkilotlar va ayrim mamlakatlar ushbu yo‘nalishda muayyan ishlarni amalga oshirayotgan bo‘lsa-da, Afg‘oniston jahon hamjamiyati uchun hali-hanuz terrorchilik o‘chog‘i bo‘lib qolayotganini, ushbu mamlakatda ziddiyatlarning kuchayib borishi, keskinlik ko‘laming kengayishi global xavfsizlik va barqarorlik uchun hamon jiddiy tahdid solayotganini ham ta’kidlash zarur. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.Karimovning 2007 yil aprelda Buxarest shaxrida bo‘lib o‘tgan, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta’minalash yo‘lida ko‘p tomonlama hamkorlik, shuningdek, Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirishga doir masalalar muhokama qilingan NATO Yevroatlantika hamkorlik kengashi sammitida qilgan ma’ruzasida bayon etilgan g‘oyalar diqqatga sazovordir.

Mamlakatimizning Birinchi Prezidenti I.Karimov ta’kidlaganlaridek, Afg‘onistondagi vaziyatga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi uchun eng avvalo, g‘oyat murakkab ijtimoiy-iqtisodiy masalalarni, aholi banndligi, hokimiyatning vertikal boshqaruvi va nufuzini mustahkamlash, aholining xalqaro koalitsiya kuchlariga bo‘lgan ishonchini qozonish, jangarilarni moliyalashning asosiy manbai bo‘lmish

narkotiklar ishlab chiqarish va yetkazib berishga qarshi kurashish bilan bog‘liq. muammolarni hal etish lozim.

Shuningdek, vaziyatni barqarorlashtirishda ko‘p millatli Afg‘oniston xalqining an’anaviy diniy, milliy-madaniy qadriyatlari va urf-odatlarini hurmat qilish hamda qo‘llab-quvvatlash, kam sonli millatlarning o‘ziga xos manfaatlarini e’tirof etish ham o‘ta muhim ahamiyatga ega.

Ayni paytda, davlat va jamiyat qurilishi, fuqarolik institutlarini shakllantirish borasida islohotlarning bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirilishini ta’minlash, bunda Afg‘onistonda siyosiy barqarorlik va iqtisodiy farovonlikka erishish islohotlar muvaffaqiyatining muhim kafolati ekanini e’tiborga olish zarur. Shu bilan birga, qo‘shni Pokiston bilan birgalikda chegara muammolarini, avvalo, Vaziriston hududida, hal etish ham Afg‘onistondagi vaziyatning ijobjiy tomonga o‘zgarishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu g‘oyalar bilan bir qatorda mamlakatimizning Birinchi Prezidenti tomonidan Afg‘onistonda vaziyatni barqarorlashtirish bo‘yicha yagona xalqaro amaliy mexanizm bo‘lib kelgan, 1997-2001-yillarda BMT raxnamoligida samarali faoliyat ko‘rsatgan, Afg‘oniston bilan qo‘shni davlatlar, AQSH va Rossiyaning vakolatli vakillaridan tashkil topgan “6+2” muloqot guruheni hozirgi voqelikni inobatga olgan holda va muzokaralar jarayonida NATO vakolatxonasi xam albatta ishtirok etishini nazarda tutib, “6+3” guruhiba aylantirish zarurligi xaqidagi g‘oyat qimmatli amaliy taklif ilgari surilganini ham alohida qayd etish lozim. Bunday mexanizmning qayta tiklanishi barcha manfaatdor tomonlar ishtirokida Afg‘onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish jarayoniga ijobjiy ta’sir ko‘rsatishi shubhasiz.

O‘zbekiston din sohasidagi jarayonlarni tartibga solish, diniy munosabatlarda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarning ijobjiy yo‘sinda kechishini ta’minlash, ekstremistik g‘oyalar tarqalishining oldini olish uchun o‘zining ichki siyosatida ham tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi hamda 1998 yil 1 mayda yangi tahrirda qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi Qonunda mazkur yo‘nalishdagi faoliyatning huquqiy asoslari mujassam etilgan.

Respublikamiz ekstremizm va terrorizm bilan birga uni moliyalashtirish bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan narkobiznes va narkotrafikka qarshi kurashda ham qat’iy siyosat olib bormokda. 1999 yilda “Giyoxvandlik vositalari va psixotrop moddalar to‘g‘risida”gi, 2000 yilda “Terrorizmga qarshi kurash to‘g‘risida”gi va 2004 yilda “Jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashrishga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonunlarning qabul qilingani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimiz diniy ekstremizm va terrorizmga qarrshi tizimli va tadrijpy kurash olib bormoqda. Bu kurash davlatimiz suvereniteti, xavfsizligi, barqarorligi va konstitusiyaviy tuzumini saqlash, mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini qurish va inson huquqlarini ta’minlash uchun xizmat qiladi.

Respublikamiz terrorizmga qarshi qaratilgan ko‘plab xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilib, ulardagi majburiyatlarini izchil bajarib kelmoqda. Shu bilan birga, bu masalalarda o‘zining tashabbuslarini ilgari surayotganini ham alohida ta’kidlash zarur.

Ma’lumki, BMTning terrorizmning oldini olish va unga qarshi kurashga qaratilgan 13 ta xujjati (11 ta Konvensiya va 2 ta protokol) mavjud. Hozirda O‘zbekiston 12 ta ana shunday xalqaro shartnomalarni ratifikatsiya qilgan. Ular qatorida 1971 yildagi fuqaro aviatsiyasinint xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash; 1973 yildagi xalqaro himoyadan foydalanuvchi shaxslar, shu jumladan, diplomatik agentlarga qarshi jinoyatlar uchun jazolash va ularni bartaraf qilish; 1979 yildagi garovga olish harakatlariga qarshi kurash; 1980 yildagi yadroviy materiallarning himoyasi; 1988 yildagi dengiz kemalari harakati xavfsizligiga tahdid soladigan noqonuniy aktlarga qarshi kurash; 1997 yildagi bombaviy terrorizmga qarshi kurash; 1999 yildagi terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash xalqaro konvensiyalari borligini ko‘rish mumkin.

Bugungi kunda BMT tomonidan “Yadroviy terrorizm xurujlariga qarshi kurash to‘g‘risida”gi xalqaro konvensiya va “Terrorizmga qarshi kurash bo‘yicha yalpi konsepsiya” loyihalari tayyorlanayotgani O‘zbekiston Respublikasining terrorizmga qarshi kurash borasidagi tashabbuslariga hamohangdir.

O‘zbekiston Yevropa Kengashi doirasida ham terrorizmga qarshi kurashga qaratilgan 7 xalqaro shartnomani imzolagan. Ularning ichida 1977 yildagi terrorizmning oldini olish; 1978 yildagi shaxslarning o‘qotar qurollarni sotib olish va ularning saklanishini nazorat qilish; 1983 yildagi zo‘ravonlik bilan amalga oshirilgan jinoyatlar oqibatida jabrlanganlarga kompensatsiyalar berish to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyalari hamda 1957 yildagi ekstradiksiya to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasi 1975 va 1978 yildagi qo‘srimcha protokollari va 1959 yildagi jinoiy ishlar bo‘yicha o‘zaro huquqiy yordam to‘g‘risidagi Yevropa Konvensiyasining 1978 yildagi qo‘srimcha protokoli bilan imzolanganini alohida qayd etish lozim.

Qayd etilgan konvensiya va protokollarda mustahkamlab qo‘yilgan qoidalar respublikamizda qabul qilinayotgan qonunlar va boshqa huquqiy-meyoriy xujjatlarda ham izchil ifodasini topmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ekstremizm va terrorizmga qarshi kurash masalalarida Mustakil Davlatlar Hamdustligi, Shanxay Hamkorlik Tashkiloti, Yevroosiyo Iqtisodiy Hamkorligi Tashkiloti, Islom konferensiyasi tashkiloti va boshqa xalqaro tashkilotlar doirasida ham faol ishtirok etmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari o‘z mustaqilligiga erishganlaridan so‘ng xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlash ularning har biri uchun birlamchi masalaga aylandi. Mintaqa aholisining qariyb 45 foizi yashaydigan O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik respublikadir. O‘zbekiston Markaziy Osiyoning o‘rtal qismida joylashgan va uning mintaqa millatlarining har biri bilan umumiy chegarasi bor. Respublikamizning jahon geosiyosiy tizimidagi o‘rni va geostrategik salohiyati uning Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta‘minlashdagi mavqeining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes kabi xavflarga qarshi kurashga

Markaziy Osiyo davlatlari tomonidan jiddiy e'tibor qaratilishiga o'z hissasini qo'shib kelmokda. Jumladan, Afg'oniston va Tojikistondagi o'ta murakkab vaziyat mintaqa xavfsizligi uchun jiddiy tahdid ekanidan kelib chikib, O'zbekiston rahbariyati ularni hal qilishda ishtirok etishga alohida e'tibor qaratdi. Bugungi kunda ushbu mamlakatlarda u yoki bu darajada barqarorlikka erishilgan ekan, bunda O'zbekistonning salmokli ijobiy hissasi borligini ta'kidlash zarur.

2002 yilning oktabr oyida BMT va YEXHT bilan hammkorlikda "Markaziy Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni mustahkamlash: narkotik moddalarning g'ayriqonuniy aylanishi, uyushgan jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashda hamkorlik" mavzuida Toshkentda o'tkazilgan xalqaro konferensiya ham bu yo'nalishdagi ishlar ko'lamidan dalolat beradi. 70 ta mamlakat va 40 ta xalqaro tashkilotdan ekspertlar ishtirok etgan mazkur anjuman xalqaro terrorizmga qarshi kurash strategiyasiga umumiy yondashuvlar borasida amaliy takliflar tayyorladi. Bundan so'ng ham O'zbekistonda ushbu muammolarga bag'ishlangan ko'plab xalqaro siyosiy va ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil qilindi. Ularning natijalari ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashni mintaqa va jahon miqyosida rivojlantirish va muvofiqlashtirishga xizmat qilmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalari hamkorligi doirasida ham O'zbekiston diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm va narkobiznes xavfini o'zaro bирgalikda bartaraf etish bo'yicha qator tashabbuslar bilan chiqib, uni ro'yobga chiqarib kelmoqda. 2000 yil 21 aprelda Toshkentda O'zbekiston, Kozog'iston, Tojikiston va Kozog'iziston respublikalari terrorizm, siyosiy va diniy ekstremizm, xalqaro uyushgan jinoyatchilik hamda tomonlarning barqarorligiga xavf tug'diradigan boshqa tahdidlarga qarshi kurashda hamkorlikda harakat qilish haqida shartnoma imzolagani ham buning isboti bo'la oladi.

Ayni paytda, O'zbekiston va Turkmaniston Prezidentlari tomonidan imzolangan bir qator shartnomalarda ham Markaziy Osiyo mintaqasida terrorizm, narkobiznes va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashda hamkorlik ham nazarda tutilganini qayd etish zarur.

Ommaviy qirg‘in quollarini tarqatmaslik nafaqat tashqi siyosatimiz, balki ichki ijtimoiy-siyosiy hayotimiz, milliy mustakilligimiz va xavfsizligimiz uchun ham muhim masaladir. Chunki mintaqamizga tutash hududlarda muayyan ekstremistik kuchlar ommaviy qirg‘in vositalariga erishishga intilib kelmoqda. Bunday maqsadga erishiladigan bo‘lsa, uning oqibatlari qanday bo‘lishi mumkinligini 2001 yilning 11 sentabrida AQShda sodir bo‘lgan voqealar misolida yaqqol ko‘rish mumkin. Xatto oddiy qurol bilan terrorchilar qanchalik yovuzlik va vaxshiyiliklar sodir etayotganini ko‘rib, ular qo‘lida ommaviy qirg‘in quroli bo‘lsa bu qanday og‘ir oqibatlarga olib kelishini tasavvur qilish mumkin.

Yadro qurollari jahon miqyosida tarkalmasligini insoniyatni yadro falokatidan saqlab qolishga xizmat qiluvchi omil sifatida qaragani sababli O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1993 yilning 28 sentabrida BMT Bosh Assambleyasining 48-sessiyasida qilgan ma’ruzasida Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratish borasidagi tashabbusni ilgari surgan edi. Diniy ekstremistlar va xalqaro terrorchi kuchlar ommaviy kirg‘in quollariga ega bo‘lishga intilayotgan hozirgi davrda yadro quroli yaratilishi uchun zarur bo‘lgan materiallar tarqalmasligiga qaratilgan ushbu harakat BMT va jahon hamjamiyati tomonidan yuqori baholandi. BMT Bosh Assambleyasining 1997 yilning 9 dekabrida bo‘lib o‘tgan 52-sessiyasida “Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratish” to‘g‘risidagi rezolyusiya qabul qilindi.

2006 yili Markaziy Osiyoda yadro qurolidan xoli hudud yaratish haqidagi shartnomalar mintaqalari davlatlari tomonidan imzolandi va bu boradagi O‘zbekiston Respublikasining tashabbuslari amalga oshdi. Markaziy Osyo jahonda beshinchil yadro qurolidan xoli mintaqaga aylandi.

Qayd etilgan misollar, diniy ekstremizm, xalqaro terrorizm, narkobiznes, uyushgan jinoyatchiliknnig global, mintaqaviy va milliy xavfsizlikka tahdid ekanini chuqur anglagan holda ilgari surayotgan tashabbuslari va amaliy faoliyati O‘zbekistonning Markaziy Osyo mintaqasida xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashning muhim bo‘g‘ini ekanidan dalolat beradi.

## **XULOSA**

1. Bu Bitiruv malakaviy ishimiz orqali mamlakatimizda demokratik fuqarolik jamiyatini qurish va bozor iqtisodiyotiga izchil o'tish jarayonida Vatanimiz tinch taraqqiyotiga xavf tug'dirayotgan diniy ekstremistik va terroristik ruhdagi mafkuraviy tahdidlarni ijtimoiy mohiyati, kelib chiqish sabablari, bunday taraqqiyot uchun xavfli bo'lgan illatlarni qo'llab-quvvatlovchi kuchlarni qanday g'arazli maqsadlarni har tomonlama o'rganishga erishildi.
2. Hozirgi davrda ko'plab ekstremistik uyushmalar va aqidaparastlar turli dinlar, shu jumladan, xristianlik, islom, yahudiylik dirlari ta'limotidan foydalanib siyosiy tus berib hokimiyatni egallashdek o'zlarining g'ayriqonuniy harakatlarini davom ettirmoqdalar. Ular o'zlarining bunday g'arazli maqsadlarini amalgam oshirishni yana bir xususiyati shundaki, jamiyatda tartibsizlik va beqarorlikni keltirib chiqarishdir.
3. Noqonuniy qurol-yarog' savdosi va narkobiznes hisobidan katta mablag' to'plab islom dinini shior qilib olgan ekstremizm va terrorizm xavfsizlikka asosiy tahdid sifatida birinchi o'rinda chiqdi.
4. Shuni ham tan olish kerakki, bunday g'arazli kuchlar hozirgi kunda OAVlaridan keng foydalanishga erishmoqdalar. Bunday hurujlarni oldini olish va bunga qarshi kurashda ijtimoiy institutlarni faoliyatini yanada faollashtirish fuqarolar, yoshlar o'rtasida ularga qarshi tura oladigan va qarshi kurasha oladigan qobiliyatini, ya'ni mafkuraviy immunitetni shakllantirish kerakligi eng dolzarb masalardan ekanligi asoslab berildi. Shunday sharoitda mohiyatan g'ayriinsoniy, shu jumladan, diniy ekstremistik g'oyalarga qarshi tura olish uchunkishilarimizda mafkuraviy immunitetni shakllantirish markaziy masalalardan biriga aylanib borayotganligiga alohida e'tibor berildi.
5. Bugungi kunda Yurtboshimiz so'zlari bilan aytganda, ahloqiy buzuqlik va zo'ravonlik, indu vidualizm va egotsentrezm, mutaasiblik va aqidaparastlik g'oyalarini tarqatish, kerak bo'lsa shuni orqasidan boylik orttirish, boshqa xalqlarni milliy va diniy qadriyatlariga bepisandlik bilan qarash, ularni qo'porishga qaratilgan tahdidlar tobora xatarli tus olayotgani ham bu xurujlarga qarshi kurashda

amaliy ishlar olib borish va mafkuraviy profilaktikani o‘rni katta ekanligi ko‘rsatib o‘tildi.

## **TAVSIYALAR**

- 1.** O‘zbekiston Respublikasi tinch barqaror hayotiga tahdid solayotgan kuchlarni ijtimoiy mohiyati, g‘arazli maqsadlarini ochib breishga erishish;
- 2.** Diniy ekstremistik ruhdagi tashkilotlarni maqsadi, ularni qo‘llab-quvvatlaydigan kuchlarni g‘ayriqonuniy maqsadlarini yoshlarga to‘g‘ri tushuntirib berishni tashkil etish (Davra suhbat, muloqot, profilaktik ishlar);
- 3.** Markaziy Osiyo mintaqasida faoliyat yuritayotgan diniy ekstremistik va mafkuraviy tahdidlar va ularning islom niqobi ostidagi harakatlarini nosog‘lom g‘oyalarini mazmun-mohiyatini fuqarolar, yoshlar o‘rtasida tushuntirib borishda seminar trening, ochiq muloqot, videofilmlar orqali tushuntirish ishlarini olib borishni tashkil etish;
- 4.** Mustaqil taraqqiyotimizga tahdid solayotgan mafkuraviy tahdidlarga qarshi OAV vositalari (radio, televedeniye)dan keng foydalangan holda unga qarshi kurashni tashkil etish;
- 5.** O‘zbekistonning diniy ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashdagi olib borayotgan odilona siyosatini, uni qo‘llab-quvvatlashni yoshlar orasida tushuntirish ishlarini olib borishni tashkil etish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI**

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T.2011.
3. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: O'zbekiston, 2008.
4. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma'naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish – barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. 15-jild. – T.: O'zbekiston, 2007.
5. Karimov I.A. Inson, uning huquqlari va erkinliklari – oliv qadriyat. 14-jild. – T. O'zbekiston, 2006.
6. Karimov I.A. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. 13-jild. – T.: O'zbekiston, 2005.
7. Karimov I.A. Tinchlik va xavfsizlik o'z kuch-qudratimiz, hamjixatligimiz va qat'iy irodamizga bog'liq. 12-jild. – T.: O'zbekiston, 2004.
8. Karimov I.A. Biz tanlagan yo'l – demokratik taraqqiyot va ma'rifiy dunyo bilan hamkorlik yo'li. 11-jild. – T.: O'zbekiston, 2003.
9. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. 10-jild. – T.: O'zbekiston, 2002.
10. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. 9-jild. – T.: O'zbekiston, 2001.
11. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. 8-jild. – T.: O'zbekiston, 2000.
12. Karimov I.A. Biz kelajagimizni o'z qo'llimiz bilan quramiz. 7-jild. – T.: O'zbekiston, 1998.
13. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lidan. 6-jild. – T.: O'zbekiston, 1998.
14. Karimov I.A. O'zbekiston XXIasr bo'sag'asida. – T.: O'zbekiston, 1997.
15. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi. 5-jild. – T.: O'zbekiston, 1997.
16. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo'lidan. 4-jild. – T.: O'zbekiston, 1996.

17. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. 1-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996.
18. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996.
19. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir. 3-jild. – T.: O‘zbekiston, 1996.
20. Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. Xalq so‘zi, 2006 yil, 26 avgust.
21. Mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashning ahamiyati, tajribalari va muammolari. “Postda” gazetasi, 16 fevaral, 2013 yil.
22. Terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurash to‘g‘risidagi xalqaro konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2001. 12-son.
23. Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurash to‘g‘risidagi Shanxay konvensiyasini ratifikatsiya qilish haqida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2001. 17-son.
24. Odam savdosiga va uchinchi shaxslar tomonidan tanfurushlikdan foydalanishiga qarshi kurash to‘g‘risidagi konvensiyasiga va yakunlovchi bayonnomaga qo‘shilish haqida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qarori. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2004. 1-2-sonlar.
25. Shanxay hamkorlik tashkilotiga a’zo davlatlar o‘rtasida mintaqaviy aksilterror tuzilmasi haqidagi bitimni ratifikatsiya qilish to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori. O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to‘plami, 2004. 1-2-sonlar.
26. Inson huquqlari: Universal xalqaro hujjatlar to‘plami. – T.: 1996.
27. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining qonuni. – T.: Adolat, 1998.
28. Abdullatif qori Hoshimjon qori o‘g‘li. Zalolatga ketmang! Hizbut tahrir fitnasidan ogoh bo‘ling. – T.: Movarounnahr, 2003.

29. Bag‘nikenglik – barqarorlik va taraqqiyot omili. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot – matbaa birlashmasi, 2007.
30. Yoshlarni buzg‘unchi g‘oyalardan asrash: muammo va yechimlar. – T.: Zarqalam, 2006.
31. Jo‘rayev N. Xalqaro terrorizm va mintaqaviy mojarolar. - .: 2000.
32. Zakurlayev A. G‘oyalar kurashi. – T.: Movarounnahr, 2000.
33. Irisov B. Din, aqidaparastlik va tahdid. – T.: Ma’naviyat, 2000.
34. Karimov A. Dunyoviylik daxriylik emas yohud “Hizbut tahrir”ning da’volari xususida mulohazalar. – T.: “Toshkent islom universiteti” nashriyot – matbaa birlashmasi, 2005.
35. Karimov A. Din niqobidagi yurtbuzarlar yohud “akromiylar” fitnasi. – T.: Movarounnahr, 2005.
36. Otamurodov S., Mamashokirov S., Xolbekov A. Markaziy Osiyo: g‘oyaviy jarayonlar va mafkuraviy tahdidlar. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.
37. Ochildiyev A. Bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasi. – T.: Yangi asr avlodi, 2001.
38. Imam Buxoriy saboqlari. Ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-adabiy jurnal. №3 2014. 18-b
39. Radjapova M. Diniy ekstermizm va terrorchilik. – T.: 2000.
40. Rahmatov O. Ogohlik – muqaddas burch. – T.: Movarounnahr, 2000.
41. Terrorizmning globallashuvida moliyaviy manbalarning o‘rni. – T.: Movarounnahr, 2006.
42. Shayxova X. Ma’naviyat – kamolotko‘zgusi. -T.: G‘afurG‘ulom, 2009, -16 b.
43. Sulaymonova F. SHarqva G‘arb. -T.: SHarq , 1997. -18-24-b.
44. Nosirov R. N, Sirojiddinov SH. S, Ziyautdinova H. A. O‘rtalosiyolik allomalarining falsafiyqarashlari. T.: Falsafa va huquq inst. nashr. 2007 -54-56 b.
45. O‘zbekistonda ijtimoiy-va gumanistik fikrlar tarixining muhim bosqichlari. -T.: Falsafavahuquqinst. nashr., 2007. -12-b.;
46. Milliy urf-odat, marosim va an’analarning shaxs ma’naviy kamolotidagi o‘rni. T.: O‘qituvchi, 1999. -47-58-b.

- 47.Shayxova X.Inson va uning ma’naviy dunyosi.-T.:Fan,1993.-12-13-b.
- 48.Safarova N.Terrorizm(tarixiy-falsafiytahlil) –T.:Noshir,2009,-26-27 b.
- 49.Musaev O.O‘zbekistonda millatlararo munosabatlar.-T.:Fan,2006.-48-52-b.
- 50.Safo Ochil. Mustaqillik ma’naviyati va tarbiya asoslari.-T.:”O‘qituvchi”,1995.-B.-254.
- 51.Hasanboev J,Turopova M,Hasanboeva O .Ma’naviy-axloqiy tarbiya asoslari.-T.:”G‘afurG‘ulom”,2000.-B.-111.
- 52.M.Lafasov, E.Tillaev, T.Yusupov. Mustaqillik va ma’naviy-tarbiyaviyi shlar. –T.:”Turon - Iqbol”, 2012. –B.-176, 180.
- 53.Quronov M. Milliy tarbiya.-T.:”Ma’naviyat”.2007,-B.-238.

### **Internet saytlari**

1. [http/ / www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [http/ / www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [http/ / www.press-service.uz](http://www.press-service.uz)
4. [http/ / www.tsil.uz](http://www.tsil.uz)